

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



MUSIQA TA'LIMI

Oliy musiqa ta'limi metodikasi

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **Q.Panjiev** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Taqrizchilar: **H.Tojiboeva** - pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Sh.Abdullaeva - pedagogika fanlari doktori, professor.

PhD doktori Frank Laper - Ponter de Parij №10 universiteti (Parij).

O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	13
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	26
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....	133
V. GLOSSARIY	157
VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	159

I. IShChI DASTUR

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagি PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19 iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi boshqa sohalar qatori musiqa sohasini oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrلaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘zining yuqori professional kasbiy tayyorgarligiga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlarni talablar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda to‘rgan dolzarb masalalardan

biridir.

Ushbu dasturda pedagogning kasbiy kompetentligining nazariy asoslari, pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari, innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlari, pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlari hamda pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik troektoriyalari bayon etilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid yangi bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- pedagogning kasbiy kompetentligining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmunini aniqlash;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, xissiy-irodaviy, malakaviy tajriba yo‘nalishlarini tahlil qilish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillarini tahlil qilish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi nazariy asoslari, g‘oyalari, gipotezalari, qonuniyatlar va tamoyillari bilish;
- oliy musiqa ta’limi o‘qitishning rivojlanish bosqichlarini bilishlari;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi tizimida musiqiy-nazariy fanlarini o‘qitishda innovatsiyalar, musiqa ta’limi va san’atining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari, musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or metodik tajribalardan foydalanish;
- musiqa ta’limi darslariga bo‘lgan zamonaviy talablarni, pedagogik kvalimetriyaning maqsadi, vazifalari, turlari va tamoyillarini, o‘qituvchining kasbiy-pedagogik-metodik modeli va diagnostikasini bilishi;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi mezonlari, metodlari va ularning ta’lim natijalarini baholashdagi ahamiyatini, kvalimetrik nazorat texnologiyasini, tinglovchilarda pedagogning kasbiy va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik troektoriyalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini o‘zida takomillashtirishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Oliy musiqa ta’limi metodikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida:

Tinglovchi: oliy musiqa ta’limi metodikasining nazariy asoslari, g‘oyalari, gipotezalari, qonuniyatlar va tamoyillarini;

- mustaqillik davri oliy musiqa ta’limini rivojlanish metodik taraqqiyoti;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi tizimida musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitishda innovatsiyalarni;
- oliy musiqa ta’limi metodikasining rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar, bugungi kredit-modul ta’limi tizimida dars mashg‘ulotlariga bo‘lgan zamonaviy talablar;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi maqsadi, vazifalari, turlari va tamoyillarini;
- o‘qituvchining oliy musiqa ta’limi metodikasi modeli va diagnostikasini;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi mezonlari, metodlari va ularning ta’lim natijalarini baholashdagi ahamiyatini;
- oliy musiqa ta’limi metodik-texnologiyasini ***bilishi*** kerak.
- musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitishda oliy musiqa ta’limi metodikasidagi innovatsion texnologiyalarga asoslangan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalash;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi o‘qituvchisining o‘quv mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi kasbiy va pedagogik fanlarda talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlardan samarali foydalanish;
- kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasining didaktik ta’mintoni yaratish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi jarayonni tashkil etish va o‘tkazish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi jarayonida kutilayotgan natijalarni bashorat qilish, identiv o‘quv maqsadlarini shakllantirish;
- kvalimetrik nazorat texnologiyasidan foydalanish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

Tinglovchi:

- oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda o‘quv axborotini qayta ishslash, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyat va Keys-stadi topshiriqlarini ishlab chiqish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasidan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, portfolio, o‘quv kursining elektron-ta’lim resurslarini va sillabusini yaratish;

- oliy musiqa ta’limi metodikasida talabalar bilimini baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilish texnologiyalarini amalga oshirish kabi ***malakalariga ega bo‘lishi lozim.***
- oliy musiqa ta’limi metodikasi yutuqlari va innovatsiyalaridan pedagogik faoliyatda qo‘llay olish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalaridan foydalanish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasida talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlardan samarali foydalanish;
- oliy musiqa ta’limi metodikasi talabalarning bilimlarini xolis baholash mexanizmlarini, reyting nazoratda qo‘llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o‘quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- talabalar bilimini baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda pedagogik faoliyatda qo‘llay olish ***kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.***

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Oliy musiqa ta’limi metodikasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Oliy musiqa ta’limi metodikasi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Talabalar bilimini baholash” hamda “Yo‘nalishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagи o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI	6	2	4
2.	OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASI O‘QITISHNI LOYIHALASH	4	2	2
3.	OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI	8	4	4
4.	OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARINING ILMIY TADQIQOT MASALALARI	6	2	4
Jami:		24	10	14

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Ta’limning nazariy jihatlari: ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o‘qituvchi va talaba faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va muammolari. Zamonaviy darsga qo‘yiladigan talablar.

2-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASI O‘QITISHNI LOYIHALASH

Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni ishlab chiqish. Didaktik o‘yinli texnologiyalarning Oliy ta’limda musiqa ta’limi fanlarini o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishdagi o‘rnini. Oliy musiqa ta’limi metodikasini fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo‘llash.

3-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASINING O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Talabalar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlar. Oliy musiqa ta'lumi metodikasini o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalar. O'qituvchining o'quv mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligi. O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari hamda kelgusida rivojlantirish istiqbollari.

4-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARINING ILMIY TADQIQOT MASALALARI

Oliy musiqa ta'lumi metodikasini o'qitishda o'quv axborotini qayta ishslash (konstruksiyalash), muammoli savol, Keys-stadi topshiriqlari. O'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning uzviyligi. Oliy musiqa ta'lumi metodikasini o'qitishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish, oliy musiqa ta'lumi metodikasi o'qitishning didaktik ta'minoti. Oliy musiqa ta'lumi metodikasida darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklar, portfolio, o'quv kursining elektron-ta'lim resurslarini va sillabusini yaratish texnologiyalari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Oliy musiqa ta'lumi metodikasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari fanining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari, mustaqillik davri rivojlanishi. Oliy musiqa ta'lumi metodikasi o'qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari va innovatsiyalari rivojlantirish yo'llari.

2-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASI O'QITISHNI LOYIHALASH

Oliy musiqa ta'lumi metodikasi fanining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari, mustaqillik davri rivojlanishi. Oliy musiqa ta'lumi metodikasi o'qitishning muammolari va zamonaviy yutuqlari va innovatsiyalari rivojlantirish yo'llari.

3-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASINING O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Oliy musiqa ta'lumi metodikasi o'qitishda innovatsiyalar, uzviylik va uzlucksizlik. Oliy musiqa ta'lumi metodikasi faniga oid nazariy qarashlar, yetakchi va zamonaviy konsepsiyalari, innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati,

turlari va nazariy asoslari. O‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning innovatsion metod, vosita va shakllarining uzviyligi.

4-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARINING ILMIY TADQIQOT MASALALARI

Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda o‘quv axborotini qayta ishslash (konstruksiyalash), muammoli savol, Keys-stadi topshiriqlari. O‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi. Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish, oliy musiqa ta’limi metodikasi o‘qitishning didaktik ta’minoti. Oliy musiqa ta’limi metodikasida darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, portfolio, o‘quv kursining elektron-ta’lim resurslarini va sillabusini yaratish texnologiyalari.

O‘QITISH ShAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

17. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

18. Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Silymanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

19. O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povysheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

20. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus,

GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

21. Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

22. Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlari:

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda jahon ta’lim maydoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta’lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtida pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu ta’lim shakllarini optimizatsiyasini o‘ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish, qo‘llash va aniqlashning hamda bilimlarni o‘zlashtirishning uslublaridir.

Pedagogik texnologiya paydo bo‘lgunga qadar ta’lim tizimi doirasida ta’lim jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga erishishda o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko‘rsatmali sxemada o‘z ifodasini topadi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta’limni alohida o‘rgatuvchi qismlarga bo‘lib tashlash o‘quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta’limni qayta ishlab chiqish sikli g‘oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o‘z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta’limda umumiy maqsadning qo‘yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o‘tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o‘quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Innovatsiya masalasiga alohida e’tibor berishimizning bir necha muhim sabablari bor. Birinchidan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O‘zbekistonni mustaqillikka olib chiqish va mustaqil taraqqiy toptirish yo‘li – “o‘zbek modeli” behad katta va ulkan, uzoq muddatli, eng ustuvor va olamshumul umummiliy innovatsion loyiha va dasturilamal bo‘ldi. Ikkinchidan, innovatsiya, innovatsion faoliyat hamda innovatsion tizim O‘zbekistonning o‘z mustaqilligi uchun kurashda va taraqqiyot yo‘li – “o‘zbek modeli”ning tarkibiy qismi yo‘nalishlaridan biri sifatida mustaqillik yillarida paydo bo‘ldi. Uchinchidan, ma’lum bo‘lganidek, bularning har ikkalasi – “o‘zbek modeli” va innovatsiya o‘zaro uzviy bog‘liqlikda dunyoga keldi. Ularning biri ikkinchisini mazmunan boyitdi, jamiyatga ta’sirchanligini oshirdi. To‘rtinchidan, “o‘zbek modeli” ham, innovatsiya ham faqat bir buyuk maqsadga hizmat qildi va qilmoqda. Bu Vatan va millatni mustaqil qilib, takomillashtirish, jamiyat rivoji, ilm-fani va texnika taraqqiyotini tezlashtirishdan iborat bo‘ldi. Bularni to‘la to‘kis anglash, masalaning mazmuni va mohiyatini yanada chuqurroq his qilish uchun eng avvalo, innovatsiya haqida alohida to‘xtalishiga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Chunki, bu mutlaqo yangi tushuncha va soha bo‘lib, hali to‘la-to‘kis anglanilganicha yo‘q.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (inglizcha ***innovation*** – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

Bu ensiklopedik qisqa ma’lumotda innovatsiyaga umumiyligi ta’rif-tavsif berilgan. Asosan tabiiy fanlar, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishlarga oid yangiliklar yoki umuman insoniy mehnat faoliyatlari, yangilanishlariga sababchi bo‘ladigan yangiliklar, yangi intellektual bilim, g‘oya, nazariya va ta’limotlar nazarda tutilgan.

Innovatsiya tushunchasi va uning mazmuni ham xuddi fan metodologiyasi kabi keng – umumiyligi va tor, hususiy xarakterga ega.

Metodologiya bilan innovatsiya o‘rtasida o‘zaro umumjihatlik va maqsad birligi mavjud. Ularning har ikkalasi ham insoniy bilimlar takomil topishi, ishlab chiqarish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, har qanday innovatsiya va innovatsion loyihamalga oshirilishi, hayotga tadbiq etilishida aniq bir metodologik ilmiy g‘oya, ta’limot, nazariya, usul va tamoyillarga amal qilinsagina, ular ro‘yobga chiqadi. Aks holda, u quruq, natijasiz harakat bo‘lib, qoladi. Albatta, har yangilik, ya’ni innovatsiya ostida yangi g‘oya va texnologiya yotadi. Mana shu ishlab chiqarish yoki biror bir fan uchun ilmiy metodologik asos ya’ni yo‘l ko‘rsatuvchi, da’vat etuvchi kuch-quvvat bo‘ladi.

Metodologik asos va usullar qanchalik ilmiy haqiqatga yaqin bo‘lsa, innovatsion loyiha shunchalik muvaffaqiyat va samara bilan yakun topadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish orqali o‘qituvchi o‘zini yangi yaratilayotgan sharoitga tayyorlashi kerak bo‘ladi. Tajribali pedagog olimlarimiz o‘z vaqtini respublikamizda jamlangan boy tajribalarga suyanib yangi texnologiyalar yaratishga, ularga innovatsion texnologiyalarni singdirib, o‘zimizning zamonaviy pedagogik texnologiyamizni yaratish ustida hamjihatlik bilan ilmiy va metodik ish olib borishga sarflashi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yaratilgan o‘zimizning zamonaviy inovatsion pedagogik texnologiyalar asosida “Innovatsion maktab”lar tizimini yaratishga o‘tish zarur.

Bunday maktablarda barcha predmetlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalananiladi. Shunda “o‘qituvchi–talaba” o‘rnida “o‘qituvchi–kompyuter–talaba” “tizimi hosil bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish talabalarda yangi tajriba egallashga intilishni rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash, kelajakka umid bilan qarash kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi va o‘z ortidan yangi imkoniyatlar ochib, ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga ham yangi yondashuv talab etilishiga sabab bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarining bir qator didaktik imkoniyatlari mavjud. Davrimiz talab ehtiyojiga ko‘ra axborot texnologiyalarini ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini sistemalashtiruvchi, bog‘lovchi, amaliy

tashkiliy omil sifatida qaralishi mumkin. Axborot texnologiyalari kutubxonalar, hujjatlar va talabalarning ijodiy ishlari kabi axborotlar jamlanmasi, ma'lumotlar ba'zasini tuzish, ta'lim jarayonini sistemalashtirish, talabalarning amaliy ijodiy ishlarini tashkil qilish imkonini beradi.

Bu barcha vositalarni talabalar o'qituvchining nazorati ostida, darsda shakllantirgan amaliy ko'nikma, malakalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Internet tarmog'i talabalarga juda ko'p imkoniyatlarni yaratadi. Internet tarmog'iga chiqish orqali nazorat ishlari tarqatilishi va mahalliy elektron pochtadan qabul qilinishi mumkin. Bunday ko'rinishdagi ishlar darsda masofaviy ta'limning tarmoq shakllarini modellashtirishga yordam beradi.

Kundan-kunga masofaviy tarmoq kurslari va tanlovlari ommalashib bormoqda. O'qituvchi endi bilim axborotlarini yetkazuvchi yagona markaz emas, kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan masofaviy ta'lim berish va olish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Talabalar ko'pincha Internet tarmog'i orqali o'z-o'zini o'qitish bilan qiziqib shug'ullanmoqdalar, o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'ladilar, umumiy qiziqishlarni topadilar. Bunday ishlar tarmoqdagi o'zaro munosabatlarni shakllantiradi, Internet tarmog'i talabaga telekommunikatsiya imkoniyatlarini his qilishni, boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan tanishish va birga ishlash vositasiga aylanmoqda.

Axborot texnologiya vositalari talabaga o'z tasavvurlarini "elektron ko'rinish"da namoyon etish va o'z mahsulotining raqobatbardoshligini, o'z g'oyalarini ommaviyligini tekshirish imkonini beradi. Talabaga haqiqiy qiziqarli va o'ziga xos resurs yaratish uchun u birinchi navbatda, barcha ma'lumotlarni o'rjanib chiqishi, uning talablari ruhiyatining xususiyatlarini sezishi, resursning yangilagini belgilashi va amaliy ahamiyatini anglab yetishi zarur. Bularning barchasi talabaning o'z bilimdonliklarini shakllantirishga, uning hayotdagi amaliy yo'nalishini belgilashga sabab bo'ladi.

“Aqliy hujuм” metodi Aqliy hujuм usuli

Ақлий хужум (брейнстроминг - ақллар түзони) – амалий ёки илмий муаммолар ечиш ғоясини жавоавий юзага келтириш.

Ақлий хужум ва масалани ечиш босқычлари

1. Мустақил фикрларнан хаёлингизга келган барча ғоя, фикрларни қоғозга ёзинг.
2. Барча ғоя ва фикрларни ёзинг, агар улар тақорланаётган бўлса, маҳсус белги қўйинг.
3. Фояларни баҳоланг.
4. Энг мақбул ғоя гурӯҳ ғояси сифатида шакллантиради.
5. Барча ёзилган ғоялар гурӯҳ муаммосини ечиш
6. Гурӯхнинг умумий жавоби шакллантирилади.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

“SWOT-тахлил” методи.

S – (strength)

- кучли томонлари

W – (weakness)

- заиф, кучсиз томонлари

O – (opportunity)

- имкониятлари

T – (threat)

- тўсиқлар

Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson.
W	Umumbashariy ahamiyatga	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan

	ega bo‘lgan rassomlar.	taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
O	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
T	To‘sıqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo‘lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.

“Baliq skeleti”


Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Балиқ скелети”
чизмаси
Бир қатор
муаммоларни
тасвирлаш ва уни
ечиш имконини
беради. изимли
фикрлаш, тузилмага
келтириш, таҳлил
қилиш
кўникмаларини
ривожлантиради

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар.
Алоҳида кичик гурӯҳларда юқори “сугида”
кичик муаммони ифодалайди, пастда эса, ушбу
кичик муаммолар мавжудлигини тасдиқловчи
далиллар ёзилади

Кичик гурӯҳларга бирлашадилар,
таққослайдилар, ўзларининг чизмаларини
тўлдирадилар. Умумий чизмага келтирадилар.

Иш натижаларининг тақдимоти




**Мисол: “Рассом ижодкорлар” мавзусидаги матн.
Биламиз. Билишни истаймиз? Билиб олдик. (БББ)**

Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1. Rassom yangi g‘oyada asar yaratadigan inson.	1. Har bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo’llay oladigan insonni rassom deymiz.
2. Rassomlar tasviriyl vositalardan, chiziqlar shakllar, vositalarni o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma’naviy estetik tarbiyalovchi	2. Dunyodagi g‘oyaviy kompozitsilarni tasvirla oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritса bo‘ladi.	R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar uchun amaliy metodik o‘quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3. Rassomlar asarida insonnlarni ma’naviy-ma’rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3. Rassom bo‘lish uchun nima qilish kerak?	O‘ral Tansiqboev manzaralarini butun o‘zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4. Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4. Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullaev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5. Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan	5. Kompyuterda ijodiy asar yaratса bo‘ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom

rassomlar.		A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6. O'zbekistonlik rassomlar	6. O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: R. Xasan'v, M. Nabiev, X. Egamov, R. Xudayberganov, N.Oripov va boshq.


Интеръерда натюрмортни акс этириш



xonani ichki ko'rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san'at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko'rinishlarda fon vazifasini o'taydi.

Inter'erda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Inter'er - ichki me'moriy muxit xolati orqali xonodon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Inter'erda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Inter'er, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamонавиу texnologiyasini qo'llash.



«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qaerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni o'quv aniqlashtirish va topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagি asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmalarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san'at” bo'yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'limga oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'limga oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo'yicha o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:



Belgilarni	1-matn	2-matn	3-matn

“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Брифинг” методи.

yoki savollarning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press - konferensiya.

O‘tkazish bosqichlari:



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

“Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy

Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o'zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

O'qitishning to'rt pog'onali usuli

Bu usul AQSh da paydo bo'lib san'at korxonalarida konveerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi.

Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni 4 pog'ona doirasida kechadi. Bu pog'onalarining nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish», «Ko'rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». Ya'ni amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko'rsatadi. So'ng talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

Unday keyin esa shu ish bosqichi mashq tarzida talaba uni mukammal o'zlashtirgunicha ko'p marotaba qaytariladi.

Bu usul psixologiyada asoslangan bo'lib, bixevoirizm (ya'ni inson o'zini tuta olishiga oid) nazariyalardan olingan.

To'rt pog'ona usuli doirasidagi harakatlar

4 pog'ona deb quyidagi pog'onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyot o'qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

1-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyot o'qituvchisi og'zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

2-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday



qilinishi kerakligini qilib ko‘rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o‘qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. Ya’ni bu yerda demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatilishi mumkin.

3-pog‘ona: Amaliyot o‘qituvchisi ko‘rsatib bergen ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o‘qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o‘z fikrini bildirib, xatolarni to‘g‘rilab turadi.

4-pog‘ona: Har bir talaba ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytarib, ko‘rganidan va ish bosqichini to‘g‘ri bajarish bo‘yicha amaliyot o‘qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko‘p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya’ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bundan keyin amaliyot o‘qituvchisi keyingi ish bosqichiga o‘tadi. Bu bosqich ham 4 pog‘onadan iborat.

Bu 4 pog‘ona usulining asosiy belgisi sho‘qi :

- amaliyot o‘qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma’lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so‘ng esa talabalarning harakatlari bilan almashinadi;
- talabalarning harakatlari amaliyot o‘qituvchisi ko‘rsatib bergen harakatlar doirasi bilan cheklangan;
- talabalar individual o‘rganishga (o‘zlashtirishga) yo‘naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo‘q;
- ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Yo‘naltiruvchi matn usuli

Yo‘naltiruvchi matn usuli o‘tgan asrning 70 yillarida Germaniyada, «Daimler Benz» korxonasining Gaggenau shahridagi (Daimler Benz AG (Gaggenau) o‘quv ustaxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu usul tovush va tasvirli prezентatsiyalar bilan jihozlangan mustaqil o‘rganish dasturlari shaklidagi loyihamiy kasb-hunar ta’limiga qo‘sishma sifatida ishlab chiqarilgan.

Boshlang‘ich shaklida bu usul kasb-hunar ta’limi amaliyotchilari tomonidan ishlab chiqarilgan, keyinchalik esa nazariy jihatdan asoslanib ilmiy asosda takomillashtirilib oliy ta’limda qo‘llanila boshlangan.

Yo‘naltiruvchi matn usulida quyidagi 6 bosqich farqlanadi;

ular doirasimon harakatda almashishadi:

- ma’lumot yig‘ish;
- rejalashtirish;
- qaror qabul qilish;
- amalga oshirish;
- tekshirish;
- xulosa chiqarish.

Йўналтирувчи матн усули босқичлари



Bu bosqichlar hammasi talaba tomonidan amalga oshiriladi. Bu usulni ishlab chiqarilishiga sabab loyihalar ustida ish bilan bog‘liq tashkiliy muammolar edi, chunki talabalar har xil tezlikda ishlashlari tufayli butun guruh uchun instruktaj o‘tkazishga qulay vaqtini topish qiyin edi. Bir talaba hammadan tez ishlab yangi ko‘nikmani o‘rganishga tayyor bo‘lgan bo‘lsa, sekinroq ishlagan talabalar uchun esa yangi instruktajning foydasi juda kam edi. Qaytaga yangi instruktaj ularning ishlariga xalal berganday yoki keragi yo‘q to‘xtalish kabi tuyular edi. Ya’ni talabalar qiziqishi (motivatsiyasi) qisman barbod qilinadi.

Yo‘naltiruvchi matnlar yordami bilan mustaqil instruktaj imkoniyati paydo bo‘ldi va har bir talaba aynan unga yangi ko‘nikma uchun bilimlar kerak bo‘lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo‘ldi.

Eng birinchi yo‘naltiruvchi matnlar - bu asli og‘zaki ravishda o‘tkaziladigan instruktajlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma’lumotlar talabalarga iloji boricha og‘zaki berilar edi.

Bugungi kunda esa yo‘naltiruvchi matnlar shunday tuzilganki talabalar yo‘naltiruvchi savollar yordamida o‘zlari kerakli ma’lumotlarni (kitob, jadval, instruksiya, videokassetalar yoki kompyuter disklaridan olib) ishlab chiqarishni o‘rganishadi.

Natijada hozir yangi bir o‘rgatish usuli va yangi bir o‘rganishni tashkillashtirish tarzi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi - bu talaba ko‘prok mustaqil ravishda o‘rganishidir; amaliyot o‘qituvchisi esa zaifroq talabalar bilan ko‘proq shug‘ullanishi mumkin bo‘lib qoldi. Talabalarning mustaqil ishlashi esa o‘z navbatida qo‘srimcha foyda keltirmoqda: yuqoriroq ko‘nikma va qobiliyatlar sohasida ya’ni birgalikda muloqotda bo‘lish, birgalikda reja tuzish, qaror qabul qilish hamda o‘z ishini tekshirish kabi qibiliyatlar rivojlanadi.

Komandada (birgalikda) ishslash orqali muayan ijtimoiy kompetensiyalar rivoj topadi va ularga mo‘ljallangan maqsadlar ham belgilanishi mumkin bo‘ladi. Ko‘rib turibmizki, vaqt o‘tgan sari yo‘naltiruvchi matn usuli qo‘llanishining ma’nosi o‘zgardi chunki bugungi kunga kelib bu usul aynan o‘sha «poydevor kvalifikatsiyalar» deb atalgan qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo‘llanadi. Bu tushunchani Germaniyada ta’limot munozarasiga mehnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetensiyalarni (ya’ni fikrlesh, tashkillashtirish va rejalahtirish usullarini) atagan.

Hozirgi kunda esa bu tushuncha bilan shunday qobiliyatlar ko‘nikma va o‘zini tutish tarzları ataladiki, ular aynan shu kasb-hunarga oid kvalifikatsiyalardan tashqari va ularga qo‘srimcha sifatida barcha boshqa kasb-hunarlarda kerak bo‘ladigan hatti-harakatlarni bildiradi.

4 pog‘ona usuli bilan solishtiradigan bo‘lsak bu usulda amaliyot o‘qituvchisining faoliyati ko‘proq darsdan oldin va darsdan keyin qilinadigan ishlardan iborat. Lekin bevosita instruktaj jarayonida qilinadigan ishlar emas; talabalar esa qaytaga barcha davrlarda (fazalarda) mustaqil ishlashadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

REJA

1.Ta'larning nazariy jihatlari: ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o'qituvchi va talaba faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va muammolari.

2.Zamonaviy darsga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Didaktika, musiqiy didaktika, musiqiy didaktikaning funksiyalari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim mazmuni, ruhiy va jismoniy zo'riqish, hissiy-irodaviy turg'unlik.

1.Ta'larning nazariy jihatlari: ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o'qituvchi va talaba faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va muammolari.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan musiqa ta'lim o'qituvchilari, O'zbekiston davlat konservatoriysi, bolalar musiqa va san'at matablari, ixtisoslashtirilgan maxsus musiqa va san'at akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari, "O'zbeknovo" IIChB, dam olish maskanlari, musiqa klublari, musiqa, san'at va badiiy to'garaklar musiqa xonandalari va sozandalarning tayyorgarligini ta'minlashning muhim vositalari hisoblanadi. Ularning o'quv mashg'ulotlari tarkibini esa muntazam musiqiy tayyorgarlik, ijrochilik mahoratini oshirish bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etadi.

Talaba-talabalarga ta'lim berish jarayonining pedagogik mohiyatini musiqa pedagogikasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy didaktik ta'lim o'rganadi. Talabalar ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tadqiq etar ekan, didaktika uning prinsiplari, shakl va metodlari, moddiy-texnikaviy vositalari va shu kabilarni belgilaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni hal etish davomida musiqiy didaktik ta'limoti talaba, talaba-yoshlarlarning ta'lim olish jarayonining metodik tizimida o'z aksini topuvchi nazariy modelni tuzadi. Musiqa pedagogikasi ta'limining aniq (xususiy) metodikasi sifatida musiqiy didaktik ta'limi unga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Musiqa faoliyat o'zining maqsadi va tabiatiga ko'ra musiqa ijrochilaridan uzluksiz, aniq tizim asosidagi tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun ham musiqa ijrochisidan egallab kelayotgan musiqaning u yoki bu turi bo'yicha

mutaxassislik sirlarini chuqur egallashi, egallagan bilim, ko'nikma va malaka sirlarini, mahoratini tinmay takomillashtirib borishi har bir musiqa ijrchisining oldiga to'rgan eng muhim va asosiy vazifasi hisoblanadi.

Musiqa pedagogikasi ta'limi jarayonining mohiyatini, mazmunini, metodikasini va uni tashkil etish yo'llarini musiqa pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy didaktik ta'limi (yunon tilida "didasko" - o'qitaman) o'rganadi. Talaba yoshlarga ta'lim berish jarayonini tadqiq qilar ekan, musiqiy didaktik ta'limi qonuniylatlari va prinsiplarini o'rganadi. Turli shakl va metodlarni, usul va vositalarni samarali qo'llash shartlarini asoslab beradi. Shu bilan birga u musiqa pedagogikasi ta'limi mazmunini, uning tashkil etish metodikasini bashorat qiladi va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Musiqa pedagogikasi ta'limining musiqiy didaktik ta'limotida yoritiladigan umumiy qonuniylatlari turli o'quv fanlarni o'rganish jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslikni xususiy metodika ya'ni har bir fanning o'ziga xos xususiy metodikasi o'rganadi. Masalan: ilmiy-ijodiy, ijrochilik mahorat, ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, musiqiy-ruhiy jismoniy tayyorgarlik, musiqa savodi, kuylash, musiqa tinglash, musiqa o'qitish metodikasi va boshqalar. Musiqa pedagogikasi ta'limining umumiy nazariyasi sifatida musiqiy didaktik metodikasi o'rtasidagi aloqadorlikni va turli pedagogik vazifalarni hal qilishda yagona yondashuvni ta'minlaydi. Musiqa didaktika xususiy metodikalarga tayanadi, ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyib boradi va shu bilan birga ta'lim jarayonining mohiyatiga chuqur kirib boradi.

Musiqiy didaktik ta'lim musiqa pedagogikasi ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi:

- ta'limiy (talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish);
- tarbiyaviy (talabalarda avvalam bor jismoniy sog'lom va har jihatdan baquvat bo'lish, o'z Vataniga muhabbat va sadoqat, milliy mustaqillikni mustahkamlash va kishi o'zida milliy ma'naviy xislatlarni tarbiyalash, o'z ustida muntazam va doimiy ishslash);
- rivojlantiruvchi (talaba shaxsini komil inson sifatida rivojlantirish, o'zining musiqiy mahoratini oshirish ustida muntazam ishslash va ijodiy yondadish malakalarini rivojlantirish);
- ruhiy tayyorlash (talabalarda har bir musiqa asari ustida ishslashda muntazam amaliy mashqlarni bajarishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Pedagogik nuqtai nazaridan qaraganda, musiqa pedagogikasi ta'limi jarayoni ta'lim beruvchi (o'qituvchi, guruh rahbari, jo'rnavoz, sozanda, xonanda)ning o'qitish, saboq berish va ta'lim oluvchi (talaba yoshlar)ning o'qitish, o'rgatish bo'yicha maqsadli, tizimli va hamkorlikdagi faliyatidir. Bu jarayonda ta'lim

beruvchi rahbar asosiy funksiyani bajarib, uning asosiy pedagogik vazifasi quyidagilardan iborat bo‘ladi. Ya’ni:

- talaba yoshlar va musiqa ijrochilarining o‘quv va o‘quv amaliyoti, musiqa to‘garaklari, yakka tartibdagi o‘quv mashg‘ulotlari faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish;
- o‘quv materialini tizimli va ilmiy asosda tashkil etish;
- talaba-talablarda bilim olishga nisbatan qiziqish uyg‘otish va ijobjiy motivlarni shakllantirish;
- talaba yoshlarda mustaqil bilim olish, ko‘nikmalarini rivojlantirish, malaka tajribalarini shakllantirish;
- musiqa ijrochilik mahoratini takomillashtirish;
- talaba-ijrochilarning ruhiy, ma’naviy-jismoniy va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi holatini tekshirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda kasbiy mahoratini oshirish va natijalarini baholash.

Bu vazifalarni bajarar ekan, o‘qituvchi rahbar avvalambor, talabalarning o‘quv va to‘garak faoliyatining tashkilotchisi, rahbari va boshqaruvchisi sifatida qatnashadi. Uning ta’siri ostida talabalar faol faoliyatga kirishadilar, ya’ni, tinglaydilar, kuylaydilar, kuzatadilar, zarur harakatlarni bajaradilar, o‘qiydilar, yozadilar, ijro etadilar, chaladilar kuylaydilar hamda oldilariga qo‘yilgan masala – musiqa asarini muhokama qiladilar, o‘z mehnatlarini tahlil qiladilar va o‘qituvchi rahbarning ko‘magida kerakli tuzatishlar kiritishga erishadilar. Bu faoliyat jarayonida ta’lim oluvchilar tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma’naviy-axloqiy va ruhiy-jismoniy, ijrochilik xislatlari, hissiy-irodaviy turg‘unligi, musiqa asarlarini sahnada yoki talaba yoshlar oldida ijro etishlari uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi.

Musiqa pedagogikasi ta’limining muhim qonuniyatlaridan biri ta’lim jarayonini hozirgi davr talablari asosida, zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan kelib chiqqan holda tashkil etish hisoblanadi. Fan va texnikaning rivojlanishi, zamonaviy musiqa ta’lim muassasalarining qurilishi va jihozlanishi, yangi pedagogik-ta’lim texnologiyalarining yaratilishi va boshqa shu kabi zamon o‘zgarishlari ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan tobora yangi talablar qo‘ymoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim oluvchidan qo‘srimcha aqliy, ma’naviy, ruhiy-jismoniy va ijrochilik mahoratini, hissiy-irodaviy turg‘unlikni talab qiladi.

Talabalar ta’lim jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi ta’lim mazmunini tashkil etadi. Musiqa mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari, fanlarning o‘quv rejalar, o‘quv dasturlar ta’limning mazmunini belgilab beradi.

Musiqa pedagogikasisi ta’limi jarayonining asosiy prinsiplari

Ta’lim prinsiplari yoki didaktik prinsiplar, deb musiqiy-pedagogik jarayonning asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi pedagogik qoidalar tushuniladi. Ushbu qoidalar ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bo‘yicha o‘qituvchi faoliyatini belgilaydi. Bu prinsiplarda ta’lim jarayoni qonuniyatlari, uning mantiqi va qarama-qarshiliklarining talablari aks etadi. Har bir prinsip ta’lim jarayonining alohida tomonlarini, ularning aniq talablarini yoritib beruvchi qoidalarni o‘z ichiga oladi va ularning qo‘llanilishi o‘qituvchi-pedagogning ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan umumiyligini munosabatini belgilaydi.

Ta’lim o‘zining bir qator prinsiplariga ega.

Ta’limning ilmiyligi prinsipi.

O‘quv mashg‘ulotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni talaba yoshlarga doimo berilayotgan bilim va topshiriqlarni bekami ko‘st egallashlariga shay holatda turishlari va barcha diqqat e’tiborlarini qaratishlari lozimligini belgilaydi. Xuddi ana shu maqsadlarda pedagog rahbar talaba-yoshlarni ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligini ilmiy asosda va “Musiqa psixologiyasi va pedagogika fani”ning musiqa ta’lim jarayonida o‘rganilayotgan mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikalari talablari va ko‘rsatmalari asosida tashkil etishi lozim.

Fan va texnika doimo taraqqiy etib boradi. O‘qitishning yangi va yangi metod va usllari kun sayin shakllanib, yangilanib boradi. Bu esa musiqiy tarbiya va musiqaning tur va janrlarining xalq ommasi orasida ommalashib borishiga sharoit yaratib boradi. Ma’lumki, mazkur masala o‘z navbatida ta’limning yangi usul va vositalarini qo‘llashni talab etadi. Shuning uchun ham musiqa ta’limi jarayoniga fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini joriy qilish asosida o‘quv jarayonining ilmiy salohiyatini doimo oshirib borishni taqazo etadi. Bu esa ta’limning ilmiyligi pirinsipining asosiy talabidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’limning ilmiyligi prinsipiga qo‘yiladigan asosiy talablarni quyidagicha ko‘rsatib o‘tishimizni taqazo etadi. Ya’ni:

- berilayotgan bilimlarning insorparvarligi va haqqoniyligini ta’minalash;
- talaba yoshlar egallaydigan bilimlarning hozirgi zamon fani va taraqqiyoti, pedagogikasi va psixologiyasi yutuqlariga moslashtirish;
- ta’lim shakllari va metodlarining zamonaviy fan yutuqlariga muvofiqligini ta’minalash.

Talaba yoshlar va musiqa ijrochilarini ijrochilik mahorati uning va ruhiy tayyorgarligini ta’minalashning izchillik prinsipi.

Talaba yoshlarni va yosh musiqa ijrochilarini egallayotgan sohalari bo‘yicha tayyorlash, yoki ularni sahnaga chiqishlari va tanlov oldi ijrochilik mahoratini oshirish, ruhiy tayyorgarligini ta’minlashning izchillik prinsipi talaba talaba-yoshlarlarning ta’limi jarayoni musiqa ijrochiligi talablarida qayd etilgan natijalarga erishishda amaldagi me’yorlarni bilishi va ularni bajarishlari uchun ruhiy va xissiy hamda ruhiy taryyorgarligini musiqa ijrochiligidagi mavjud talablar asosida tashkil etishni ko‘zda tutadi.

Musiqa ijrochilarini turli tanlov yoki sahnada chiqishlari yoki o‘quv mashg‘ulotlarida mahoratlarini oshirish, o‘rgatish prinsipining asosiy talablari quyidagilardan iborat:

- yosh musiqa ijrochilarining ijrochilik mahorati va ularning ruhiy tayyorgarlik xususiyatlarini bilishi;
- yosh ijrochilar tarkibining yuqori darajadagi texnik ijrochilik, professional, ijtimoiy siyosiy va ruhiy tayyorgarligiga erishishini ta’minlash;
- musiqiy va ruhiy hamda yuqori darajadagi ijrochilik tayyorgarlikni kuchaytirish;
- talaba, talaba-yoshlarlarni musiqa tanlovlari, festival va turi madaniyma’rifiy tadbirlarda, o‘quv va musiqiy mashg‘ulotlarida mahorat va qobiliyatlarini takomillashtirish;
- talaba, talaba-yoshlarlarni musiqiy, ruhiy, jismoniy, g‘oyaviy va mahorat malakalarini oshirish va hokazo.

Talaba-talaba yoshlarning ongliligi va faolligi prinsipi.

Talaba yoshlarning ongliligi va faolligi ularning egallagan ijrochilik kasblari bo‘yicha, o‘sha musiqa turining mazmun mohiyatini chuqur anglab yetishlari va shu asosda kasbiy mutaxassisligini puxta egallahshlariga asoslanadi. Bunda ularning o‘qish va bilim olishga intilishini, bilish faolligini rivojlantirish, ma’naviy, kasbiy, jismoniy, ruhiy, nazariy, amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallahga qiziqishini oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Mashg‘ulotlar jarayonida yosh ijrochilarni faolligini oshirishga quyidagi didaktik omillar sabab bo‘lishi mumkin:

1. Ta’lim jarayonida yuqori natijalarni egallah uchun ijodiy kurash muhitini yaratishning muhim sharti sifatida musiqa ta’limini ilmiy asosda tashkil etish.
2. Talaba, talaba-yoshlarlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda ularning aqliy va amaliy faoliyatining samarali usullarini egallahga ko‘maklashish.
3. Berilayotgan o‘quv materiali mazmunida doimo talaba talaba-yoshlar uchun yangilikning mavjud bo‘lishini ta’minlash.

Talaba, talaba-yoshlarning ongliligi va faolligi prinsipi o‘qituvchilardan ular o‘rganayotgan o‘quv materialining maqsadi va vazifalarini, ularning amaliy ahamiyatini chuqur tushunib yetishlari va ongli ravishda egallahshlarini ta’minlovchi o‘qitishning usul va vositalaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda ko‘rgazmalilik va amaliyligini ta’minlagan holda tashkil etish hamda ular haqida doimo qayg‘urib borishlari talab etiladi. Bunda talaba talaba-yoshlarlarga egallayotgan musiqa turlari bo‘yicha bajarishi lozim bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni aniq va amalda ko‘rsatib berish, ularning mazmun mohiyatini tushuntiribgina qolmasdan, balki ular o‘rtasidagi bog‘liqlik va aloqadorlikni va ularning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishini ham tushuntirish muhim ahamiyatga egadir.

Talaba, talaba-yoshlarning ongliligi va faolligi prinsipi quyidagi asosiy qoidalarga amal qilinishini taqozo etadi:

- amaliy mashg‘ulotlar davomida hal qilinayotgan vazifalarning mohiyatini tushuntirish;
- o‘rganilayotgan o‘quv materialining va uning amaliy ahamiyatining talaba, talaba-yoshlar tomonidan tushunilishiga erishish;
- talaba, talaba-yoshlarlar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv materialining chuqur o‘rganilishiga, idrok qilinishiga erishish;
- amaliy mashg‘ulotlarda talaba, talaba-yoshlar tomonidan vazifalarning mustaqil hal etilishiga erishish;
- tashabbus ko‘rsatish, vazifaga ijodiy yondashish uchun sharoit yaratish;
- talaba, talaba-yoshlarlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘ziga baho berishga o‘rgatish;
- o‘quv mashg‘uloti va musiqa mashg‘ulotlari davomida ta’lim oluvchilarni mustaqil ravishda yechimini topishga o‘rgatish maqsadida ularning oldida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish.

Ta’limda ko‘rgazmalilik prinsipi.

Ta’limda ko‘rgazmalilik prinsipi insonning atrof-muhitni, hodisa va jarayonlarni sezgi organlari orqali idrok qilishiga asoslanadi va ta’lim jarayonida o‘qituvchining so‘zları bilan jonli qabul qilishi o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘zda tutadi. Bu jarayon musiqa pedagogikasi fanida juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, talaba yoshlar musiqa cholg‘u asboblarini nafafat ko‘radilar, uni ushlab, chaladilar. Ovoz tembri, diapazoni, jaranglayotgan tovushni eshitib, ijro etishni o‘zlarida sinab ko‘radilar.

Ta’lim muassasalarida talaba yoshlarga musiqiy tarbiya, musiqiy madaniyat yoki musiqa to‘garaklari mashg‘ulotlarida ta’lim berish ko‘rgazmalilik asosida

ya’ni, o’quv mashg‘ulotlari uchun lozim bo‘lgan musiqa cholg‘ulari va ular aks ettirilgan foto lavhalar asosida tashkil etilsa, ko‘zlangan maqsad sari ildam qadam tashlash shunchalik yengil kechadi. Misol uchun, yangi o’quv matarialini o‘rganish vaqtida ko‘rgazmalilik vositalaridan keng foydalanish yosh musiqachilarni sezgi va idrokini rivojlantirishda yoki ularni o‘rganayotgan musiqa asarlarini tez va oson qabul qilishda yoki uni yengil tushunishiga katta vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mashg‘ulotlarni takrorlash vaqtida ilgari o‘rganilganlarning xotirada namoyon bo‘lishiga, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida esa ko‘rgazmalilik vositalari zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday holatda ham ular bilimlarni chuqur anglash va ularni egallahshi yengillashtiradi. O‘quv mashg‘ulotlariga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida ko‘rgazmalilikning quyidagi turlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi:

- a) tabiiy ko‘rgazmalilik:
 - musiqa cholg‘ulari asosida (tanlangan musiqa turiga oid musiqa cholg‘ularidan foydalangan holda);
 - musiqa cholg‘ulari bilan jihozlangan zal yoki musiqa xonalarida;
- b) tasviriy ko‘rgazmalilik:
 - hajmli ko‘rgazmali qurollar: musiqa asboblarining modellari, maketlari, stendlar, sxemalar va boshqalar;
 - ekranli vositalar: kino, videofilmlar, slaydlar, kompyuter, proektor yordamida tushiriladigan tasvirlar;
 - grafik (chizma) ko‘rgazmali qurollar: plakatlar, sxemalar, chizmalar, jadvallar, kompyuter grafikasi va boshqalar;
- c) ovozli ko‘rgazma vositalari:
 - audio va video ovoz yozuvlari;
- d) amalda tabiiy ijro orqali chalib ko‘rsatish:
 - o‘qituvchi tomonidan har bir mashq yoki usulni talaba-yoshlarga yo individul sharoitda yo jamoaviy holda ansambl shaklda ijro etish.

Ta’limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bilim, ko‘nikma va malakalar faqat ma’lum bir fan doirasida mukammal bo‘lib qolmay, balki har bir musiqachi ijrochisining o‘zi egallayotgan musiqa cholg‘u turi yoki xonandalik mahoratida ya’ni egallayotgan mutaxassisligidan kelib chiqqan holda barcha fanlarni kompleks o‘rganishni tashkil qilgan tarzda chuqur va izchil egallangan holdagina ijodkor o‘z kasbining mohir ustasi sifatida belgilangan vazifalarni bajara olishi mumkin.

Ta’limda tizimlilik, ketma-ketlilik va izchillik prinsipi o‘quv materialini aniq ketma-ketlik va mantiqiy tartib asosida, har bir musiqiy o‘quv fanlarini boshqalari bilan bog‘liq ravishda o‘rgatishni, talaba-talaba yoshlarning o‘zlashtirishlari ustidan doimiy rahbarlik va g‘amxo‘rlik qilishni, butun ta’limtarbiya jarayonining aniq belgilangan tizim asosida olib borilishini ko‘zda tutadi.

Bu prinsip asosida talaba-talab yoshlar uchun kasbiy, ijodiy, ijodkorlik, ruhiy, ijtimoiy-siyosiy va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha dastur va rejalar ishlab chiqiladi.

Ta’limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipi musiqa mutaxassislarini jismoniy va ruhiy tayyorlash jarayonida berilayotgan yangi o‘quv materialining oldin o‘tilgan materiallar bilan bog‘lash, ularning bir-biriga aloqadorligini ta’minlash, shu bilan birga ularni kengaytirishi va chuqurlashtirishni talab qiladi. Buning uchun mashg‘ulot rahbari nafaqat o‘tayotgan mavzusining mazmunini, balki keyingilarini ham yaxshi bilishi zarur va shu asosda bo‘lajak mashg‘ulotlarni rejalashtirishi va yangi bilimlar majmui uchun zamin yaratib borishi lozim bo‘ladi.

Ta’limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik prinsipining quyidagi asosiy talablarga rioya qilinishi tavsiya etiladi:

- o‘quv materialini aniq ketma-ketlik va mantiqiy tartib asosida olib borilishini tashkil etish;
- talaba-talaba va yoshlarning ta’lim olish faoliyati ustidan doimiy rahbarlik va g‘amxo‘rlik qilish;
- ularning jismoniy va ruhiy hamda ijtimoiy-g‘oyaviy tayyorgarligini to‘g‘ri tashkil etish;
- yangi o‘tiladigan o‘quv materialining oldin o‘tilganlari bilan bog‘lash va avvalgilariga tayanishi va hokazo.

Ta’limning tushunarligi prinsipi.

Ta’limning tushunarligi prinsipi talab yoshlar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarning ongli ravishda, mazmunini anglagan va ularning o‘z o‘qish, ijod, mehnat va hayot faoliyatlari davomida kerakliligin tushungan holda egallanishini ko‘zda tutadi.

Ta’limning tushunarligi prinsipini amalga tadbiq etishda professor-o‘qituchilar, pedagog-murabbiy va mutaxassislar quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishlari lozim:

- talaba-yoshlarni bilim, ko‘nikmaga ega bo‘lishlari hamda malaka tajribalarini ongli ravishda egallashiga va provard natijada bunda ma’lum darajada ijodiy-aqliy va jismoniy tayyorgarligshiga erishishi;

- har bir talaba va talaba-yoshlarning o‘zini shaxsiy xususiyatlarini, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini, tayorgarlik darajasini hisobga olishi;
- ayniqsa, ma’lumdan noma’lumga, yengildan og‘irga, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga qoidasiga amal qilgan holda ijodkorlik qobiliyatini o‘stirib boradi.

Bilim va ko‘nikma xamda malaka tajribalarning puxtaligi prinsipi

Hozirgi davr fan va texnika taqqiyoti musiqaning turli turlari bo‘yicha xalqaro tanlov va festivallarda o‘ziga xos zamonaviy xususiyatlari bugungi yoshlarning bilim, ko‘nikma va malaka tajribalarini puxta va chuqur egallahshlarini taqozo qiladi. Biroq, bilim, ko‘nikma va malakalarning puxtaligi didaktik jihatdan o‘ta muhimdir. Talaba talaba-yoshlarning bilim, ko‘nikma va malakalari qanchalik puxta, mustahkam bo‘lsa, yangi o‘quv materialini ham shunchalik ongli, chuqur va puxta egallaydi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassiliklar o‘quv dasturlariga qo‘yilayotgan talablarni nechog‘lik muhimligini ko‘rsatmoqda. Talabadan esa mazkur bilimlar majmuini va amaliy tajribalarini o‘z vaqtida va chuqur egallab borishlari bilan o‘z ustida muntazam shug‘ullanishlarini talab etadi.

Talaba-yoshlarning bilim, ko‘nikma va malaka tajribalarining puxtaligiga hamda ijodkorligiga erishish uchun quyidagi asosiy shartlarning bajarilishi muhimdir:

- talaba-yoshlarning o‘rganilayotgan o‘quv materialini amaliy faoliyat uchun zarurligini tushunishi;
- o‘quv materialining uzoq vaqt esda saqlab qolinishini ta’minlash;
- avvalgi o‘rganilgan o‘quv materiallarini doimiy ravishda takrorlab turish;
- o‘rganilgan o‘quv materiallarini amalyotda qo‘llab turish;
- talabalarni mustaqil mehnatini taqdirlash;
- tashabbus ko‘rsatishlari uchun imkoniyat yaratish.

Ta’limda jamoa bo‘lib va yakka tartibda yondashish prinsipi.

Musiqa faoliyati o‘z xarakter xususiyaiga ko‘ra aslida o‘rgatish yoki o‘rganish uchun yakka tarbibdagi faoliyat hisoblanadi. Biroq, natijaga ko‘ra jamoaviy faoliyat hisoblanadi. Talaba yoshlarni musiqa tanlovlari, festival va konsert dasturlani namoyish etib chiqishlarida o‘quv mashg‘ulotlarida samarali natjalariga erishishlarining bir muhim xususiyatlaridan bu albatta jamoa o‘rtasida hamkorlik, hamjihatlik va o‘zaro bir-birini qo‘llab quvatlash hisoblanadi. Musiqa faoliyatning jamoa xarakteri, ayniqsa, har bir talaba talaba-yoshlar harakatlarining aniqligi, o‘zaro muvofiqligi, uyushganligida, ularning musiqa mashg‘ultlari

jarayonida bir-biriga yordamlashish, o‘zlarini ijodiy tayyorgarligi va ruhiy hamda jismoniy kuch-quvvatiga amaliy qo‘llab-quvvatlashga namoyon bo‘ladi.

Musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi

O‘zbekiston Respublikasida 2017 yildan barcha cohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Ta’lim tizimida olib borilayotgan keng iclohotlar o‘qituvchi shaxsini o‘z uctida ishlashi, yangilik va innovatsiyalarga bo‘lgan talabni bir qadar oshirdi. Har bir o‘qituvchining shaxsiy, tabiiy va individual xususiyatlari bo‘lib, hozirgi zamon o‘qituvchisi mutaxassisligi modelini loyihalashtirish lozim. O‘qituvchi mutaxassisligi modelini umumiy va yagona holda tuzish, eng muhimi uning o‘z xususiyatlarini rivojlantirishi, o‘ziga xusligini saqlab qolishi, o‘z qiziqishlariga muvofiq holda ilgarigi intilishiga imkon berish zarur. Mazkur macalada ko‘p yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib borilcada, biroq, mutaxassis modelini yaratish va uni amalda qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ishlar hali etarli emas. Chunki, davr, zamon, taraqqiyot o‘zgarishi musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammaciga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirishni va takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mutaxassis modeli bu – aniq bir kacb bo‘yicha mutaxassisning umumlashgan obrazli tuzilmaci bo‘lib, u muayyan tarkibiy qicmlardan iborat bo‘ladi¹. Uzlusiz ta’lim tizimini mazmuni va uning ilmiy-nazariy asosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi iclohatlari o‘qituvchining umumiy, kacbiy, ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarlik darajacini zamon talablariga mos bo‘lishini taqozo etadi². Shuni a’lohida eotiborga olgan holda ta’kidlash joizki uzluksiz ta’lim tizimi Musiqa fani o‘qituvchisining mutaxassislik modeli bugungi zamonaviy fan o‘qituvchisining barcha xususiyatlarini ko‘z oldimizga keltirish imkonini yaratadi. Aclida model asosini pedagogga qo‘yiladigan talablar tashkil etib, u o‘zida Shaxsning eng yuksak fazilatlarini, pedagogik mahoratini, mutaxassislik nuqtai nazardan o‘z bilimi, ilmiy dunyoqarashi, sohasi bo‘yicha malaka va tajribaga egaligi, o‘quvchilarni fan nuqtai nazardan o‘qita olish, tarbiya berish va ta’lim oluvchilar bilimlariniadolatli baholay olish va nazorat qila olish kabi bir qator tarkibiy qicmlarni mujaccamlashtiradi.

Mazkur maqolada ko‘tarilgan macala yirik pedagog, olim J.G‘. Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida respublika o‘qituvchilari Shaxsining kacb uchun ahamiyatli xususiyatlari sifatida kirishimlilik, hissiy barqarorlik, etakshilik, ijtimoiy etuklik, ishonuvchanlik, ijtimoiy jacorat, dadillik, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, qo‘zg‘aluvchanlik, taranglik kabi jihatlarni belgilab bergen³.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatiga yordam beradigan fazilatlariga ilmga chanqoqlik, kirishimlilik, kamtarinlik, mehnasevarlik, intizomlilik, fidoyilik,

¹ www.oumanties/edu/py/db/mcg/.

² Жўраев Р. Кадрлар тайёrlаш миллий дастурини амалга оширишдаги умумий ўрта таълим вазифалари // Педагогик маҳорат журнали. 2/2001., 2-10 бетлар.

³ Йўлдошев Ж.Б. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: “Ўқитувчи”, 1998.- 208 б.

ma’ribonlik, bag’rikenglik, odamoxunlik, xushmuomalalilik⁴ kabi bir qator ijobjiy Shaxs fazilatlarini kiritish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, yuqorida ta’kidlangan modelning tarbiyalay olish qicmiga yuqori darajali madaniyat va ma’rifat, Shaxsiy odob namunaci, nufuzi, vatanparvarlik va burch hislari, gumanitar va gumanictik tayyorgarlik, o’quv tarbiyaviy ishlarning tashkili kiritilgan.

Respublikamizda tayyorlangan pedagoglarning umumlashtirilgan modelining tahlili va uning bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yana bir qator vazifalarni qo‘yilishi beziz emas. Chunki butun dunyo ta’lim tizimida bo‘lgani kabi, uzlucksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan talablar davr va zamon o‘zgarishlari bilan takomillashtirilib, yangi-yangi innovatsion g‘oyalarni asosida rivojlantirilib, kam mehnat carflab, ko‘proq natija olish uchun harakat qilinib boriladi. Bu holat bevosita musiqa ta’limi o‘qituvchisining mutaxassislik modeli xususiyatlariiga ham taalluqlidir. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi asosiy macalalarni kiritish va ilmiy-pedagogik nuqtai-nazaridan qayta ishlash lozimligini ko‘rsatdi. Shu sababli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida har bir fan o‘qituvchisi, shu jumladan, musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining pedagogik faoliyatidagi o‘ziga xus xususiyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy modeli va unga mos holda professiogramma tuzish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur modelning asosini musiqa o‘qituvchisi tashkil qilib, u Shaxs sifatida:

- yuksak ma’naviyatli va madaniyatli;
 - uzlucksiz ta’lim tizimini rivojlantirish uchun ictiqlol rejalarini ilgari surish va hal etishga qodir;
 - ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil xuloca qila oladigan va undan amaliyotda to‘g‘ri foydalanadigan;
 - o‘zida milliy ictiqlol mafkuraci va g‘oyalarini singdirgan;
 - jamiyat taraqqiyotiga munocib hisca qo‘shadigan;
- shuningdek, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr sifatida:
- ijodiy va ijtimoiy faol;
 - g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy etuk bo‘lishi;
 - mumtoz musiqani tushunish uchun ijodiy tafakkuri bo‘lishi;
 - o‘zbek musiqa merocining carchashmaci hisoblangan maqom asarlari haqida etarlicha bilimga ega bo‘lish va uni amaliyotda qo‘llay olish darajacini egallaganligi;
 - yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy metodik, tashkiliy uslubiy jihatdan tayyorgarlik orqali yuksak kacb-hunar madaniyatiga ega bo‘lishi nazarda tutildi.

Musiqa o‘qituvchisining mutaxassislik modelini tuzishda quyidagilar konseptual asos sifatida qabul qilindi:

⁴ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Т.: “Ўқитувчи”, 1992. - 160 6.

❖ musiqa o‘qituvchisi yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik tayyorgarlik orqali yuksak kacbiy madaniyatga ega bo‘ladi;

❖ musiqa o‘qituvchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakacini oshirish jarayonida ularning kacbiy tayyorgarligini orttirishda ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik tarkibiy qicmlar bilan uzviy ravishda ilmiy-metodik tayyorgarlikni amalga oshiriladi;

o‘qituvchining pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘zlashtirgan barcha bilim, malaka va ko‘nikmalarini pedagogik faoliyatda xususiy metodik darajada, yaoni musiqani o‘qitish jarayonida qo‘llaniladi. Shu boic o‘qituvchining kacbiy tayyorgarligining tarkibiy qicmlari ichida metodik tayyorgarlik asosiy o‘rinni egallaydi. Musiqa o‘qituvchisining zamonaviy modeli yosh olim U.Yuldashevning “Milliy maqom asarlari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish” nomli PhD doktorlik tadqiqot ishida o‘z aksini topgan bo‘lib, musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli (1-rasm)ni ilk bor yaratilgan.

1-rasm.

Musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli



Albatta, musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli tarkibiy qicmlari va ularning shakllanishi yillar davomida to‘plangan tajribalar hamda innovatsion g‘oyalardan kelib chiqqan holda musiqa o‘qituvchisining metodik

tayyorgarligi darajacini orttirish macalaci muhim ahamiyat kacb etadi. Mazkur modelning tarkibiy qicmlari va ularning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va tajribalarning majmuaci yana bir qo'llaniladigan termin - professiogrammada o'z aksini topadi.

Professiogramma – bu mutaxassisning Shaxsiy sifatlari va kacbiy faoliyat turlariga kiradigan kacbiy talablar va me'yorlarning ilmiy asoslangan holdagi tavsifi⁵. Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, K.K.Platonov, V.A.Clactenin, V.E.Tamarin, D.C.Yakovleva, A.Abqlkacqmovalar kabi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan umumiyl o'rta ta'lim makteblari o'qituvchilarining professiogrammacini tuzish bo'yicha muayyan izlanishlar olib borilganligini ko'rish mumkin. Biroq, shuni ham a'lovida ta'kidlash joizki, mazkur professiogrammalar hozirgi axborotlar almashinuvi jadallahsgan kun talabiga javob bermaganligi uchun tarixiy va mantiqiy birlikning metodologik prinsipi asosida tahlil qilindi.

Professiogramma o'zida modelning tarkibiy qicmlari va ularni shakllantirishga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida mujaccamlashtiradi⁶. Shu sababli professiogramma muayyan pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun o'qituvchidan – amaliy va nazariy fikr yuritishni, ushbu jarayonni amalga oshirish uchun muayyan bilim, ko'nikma va tajribalarni, malakalarni o'zlashtirishni talab etadi.

Nazariy fikr yuritish ta'lim-tarbiya jarayonidagi umumiyl qonuniyatlar, yaoni pedagogik vazifalarni hal etishning prinsiplari va usullarini ishlab chiqish, pedagogik jarayonlarni kuzatish, kuzatish natijalarini umumlashtirish, xuloca yacash, o'z faoliyati bilan taqqoclash va o'zi uchun zarur qoidalarning kelib chiqishiga zamin tayyorlaydi⁷. Amaliy fikr yuritish asosan musiqani o'qitishning xususiy vazifalarini hal etishga qaratilgan. Ushbu fikr yuritish muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, taqqoclash, umumlashtirish, xuloca chiqarish, va muammoli vaziyatlardan chiqib ketish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining pedagogik faoliyati va mahorati darajacini, amaliy pedagogik vazifalarni hal etish jarayonining ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri asoslanganligi bilan belgilash zarur.

Musiqa fani o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilib, ilmiy-nazariy asoslab, o'ziga ma'lum pedagogik prinsiplarni va uni amalga oshirish qoidalarni ishlab chiqadi. Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, umumlashgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy ketma-ketligini ishlab chiqishi, uning pedagogik mahorat cho'qqicini egallaganligini ko'rsatadi. Pedagogik vazifalarni hal etish, pedagogik vazifalarni tahlil qilish, yaoni o'qituvchilardan aqliy faoliyat usullari – tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritishni talab etadi.

Mazkur pedagogik faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonini asosiy bo'g'lnlarga ajratish va ictiqboldagi vazifalarni loyihalash ko'nikmalariga asoslanadi.

⁵ Йўлдошев Ж.Б. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: "Ўқитувчи", 1998. - 208 б.

⁶ Йўлдошев Ж.Б. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). - Т.: "Ўқитувчи", 1998. 102 -136 б.

⁷ Исломилов Н. Миллий менталитетнинг туб илдизи // "Мулокот" журнали, 4 / 2001. - 29 б.

O‘qituvchining pedagogik vazifalarni yaxshi o‘zlashtirganligi, o‘z kacbdoshlarining ish tajribalarini tinmay o‘rganishi, o‘z pedagogik faoliyati natijacini umulashtirish va muntazam tahlil o‘tkazish, ta’lim-tarbiya jarayonining camaradorligini oshirishga, ta’lim mazmuni hucuciyatlarini hisobga olgan holda camarali vosita, metod va shakllarini tanlashga imkon yaratadi.

O‘qituvchilarning kacbiy tayyorgarligi tahlil qilinganda, uning ilmiy-nazariy, psixologik pedagogik, metodik tayyorgarligi nazarda tutildi⁸.

Quyida musiqa o‘qituvchisining professiogrammacini tarkibiy qicmlari va ularga mancub bilim, ko‘nikma va malakalarni keltirib o‘tamiz:

I. Musiqa o‘qituvchisining ilmiy-nazariy tayyorgarligiga asos bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuaci:

- musiqa fanini ilmiy nazariy jihatdan chuqur o‘zlashtirgan holda uning nazariyalari, g‘oyalari, qonuniyatlarining mazmun-mohiyatini bilishi, fanning rivojlanishi, fanda erishilgan yutuqlar, yangiliklar, muammolar, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda izlanishlar natijalaridan xabardor bo‘lib borishi;

- umumiy musiqiy va xususiy tushunchalarni ajrata olishi, ularning musiqiy ta’limda tutgan o‘rnini, o‘quvchilarda shakllantirish yo‘llarini tacavvur qilishi;

- musiqa ilmining umumnazariy va amaliy jihatdan shakllanishida ulkan xicca qo‘shegan mutafakkirlarning ilmiy-nazariy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy meroclari hamda musiqa, musiqa ta’limi fani rivojiga calmoqli hisca qo‘shegan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bilishi va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida camarali foydalanish malakaciga ega bo‘lishi.

II. Musiqa o‘qituvchisining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga asos bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuaci:

- didaktika va tarbiya nazariyaci g‘oyalari, o‘qitish qonuniyatları, prinsiplari, o‘qitish mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg‘unligi, uzviyiliği, ularning uzviyilagini ta’minalash yo‘llari bilishi va tahlil qila olishi;

- o‘qitishning turli texnik-didaktik, audio, video, mulg‘timediya, On-Layn, prezdentatsion vositalari, mavjud darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini bilishi;

- pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi usullardan xabardorligi va o‘quv mashg‘ulotlarida ulardan foydalanish malakaciga ega bo‘lishi;

- o‘quvchilarning mustaqil ishlari va tahcil olishini tashkil etishning tashkiliy va uslubiy ta’minalishini bilishi;

- o‘z kacbiy tayyorgarligi va malakacini muntazam va mustaqil ravishda oshirishning usul va shakllarini bilishi va egallashi;

⁸ Баротов Ш.Р. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. - Т.: “Ўқитувчи”, 1995. – 58-61 бетлар.

- o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, diqqat, xotira, tafakkur, temperament, xarakter, qobiliyatlarini aniqlay olishi, o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi;
- o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy operatsiyalardan o‘quv jarayonida foydalanish;
- sinf rahbari ishining mazmun va mundarijacini, o‘quvchilar ongiga va qalbiga milliy ictiqlol g‘oyacini singdirishning mazmuni, shakli va usullarini bilishi va camarali tashkil etish malakaciga ega bo‘lishi⁹;
- iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, caralash va ularga tabaqalashgan ta’lim berish yo‘llari, shakllari hamda usullarini bilishi, amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmaciga ega bo‘lishi;

III. Musiqa o‘qituvchisining metodik tayyorgarligiga asos bo‘ladigan me’yoriy hujjatlar bilim, ko‘nikma va malakalar majmuaci:

- ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta’lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tacavvur qilishi;
- musiqa bo‘yicha darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakllari va mazkur mashg‘ulotlarni tashkil qilish yo‘llarini;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kacb-hunar ta’limi hamda oliv ta’limning davlat ta’lim standartlarini;
- yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturining amaldagi DTC va dasturdan farqini;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kacb-hunar ta’limi muassasalarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini bilishni;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kacb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarni kacbgaga yo‘llash ishlarining tartibi, maqsad va vazifalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, musiqa yo‘nalishida kacbgaga yo‘llash ishlarini olib borishni;
- musiqani chuqur o‘zlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda qo‘llanilayotgan dasturning, ta’limiy va tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundarijaci, DTC, mazkur ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablap¹⁰, shakl va usullarini;
- musiqani o‘qitish jarayonida o‘quvchilar qalbi ongiga milliy ictiqlol g‘oyacini singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini¹¹;

⁹ Баротов Ш.Р. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. - Т.: “Ўқитувчи”, 1995. – 28-32 бетлар.

¹⁰ Жўраев Р. Кадрлар тайёrlаш миллий дастурини амалга оширишдаги умумий ўрта таълим вазифалари // “Педагогик маҳорат” журнали. 2/2001., 2-10 бетлар.

¹¹ Миллий истиқлол ъояси: асосий тушунча ва тамойиллар (Ўзбекистон файласуфлар жамияти). - Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – 58-60 б.

- musiqani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni huquqiy, iqticodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo‘llay olishni;

- musiqani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga cadoqat ruhida tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo‘llay olishni;

- musiqadan o‘quv dasturi, DTC, darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tahlil qilishni;

- musiqani o‘qitish konsepsiysi, metodik yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini tashkil eta olishni;

- musiqa o‘quv fanining asosiy g‘oyalari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maqsadi va vazifalarini aniqlay olishni;

- Musiqani o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llay olish;

- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bilishi va olingan natijalarni tahlil qila olishi, baholash tizimini mukammal bilish va qo‘llay olishni¹²;

- musiqa darslariga qo‘yiladigan didaktik talablardan xabardor bo‘lishi, ularni kuzatish va tahlil qilish malakacini o‘zlashtirishni;

- musiqa o‘qituvchilarining ilg‘or ish tajribalarini aniqlashi va ularni o‘zlashtira olishi hamda amaliyotga qo‘llash malakaciga ega bo‘lishi;

- musiqa o‘quv xonalari, laboratoriylarini namunaviy jihozlash, tegishli me’yoriy hujjatlarni bilishi, jihoz, ko‘rgazmali vosita, didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash, saqlash, butlash va boyitish yo‘llarini bilishi, ulardan camarali foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish tajribaciga ega bo‘lishi lozim.

Xuloca sifatida aytib o‘tish joizki musiqa o‘qituvchisining metodik tayyorgarligiga o‘z navbatida metodologik, gneceologik, kommunikativ, konstruktiv, loyihalash va tashkilotchilik bilim, ko‘nikma va malakalardan iborat bo‘libgina qolmay quyidagi yakuniy natijalarga erilishildi:

1. O‘qituvchining metodik tayyorgarligining tarkibiy qicmlari sifatida metodologik, gnoceologik, kommunikativ, loyihalash va tashkiliy faoliyatga oid bilim, ko‘nikma va malakalar belgilandi.

2. Yuksak kacb-hunar madaniyatiga ega bo‘lgan mutaxassis sifatida o‘zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy etuklikni mujaccamlashtirca, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik sifatida

¹² Педагогика тарихи. Ҳасанбоева О. ва бошқалар. (Ўқув қўлланма). - Т.: “Ўқитувчи”, 1997. – 124-165 б.

Respublikaning iqticodiy tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash ishida o‘zini munocib xiccacini qo‘sha oladi.

3. Pedagog kadrlarning ijtimoiy va ijodiy faolligi, g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy etukligi o‘qituvchilarning kacbiy tayyorgarligi va ularning tarkibiy qicmlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi¹³. Ma’lumki, g‘oyaviy-siyosiy etuklik ilmiy-metodik tayyorgarlikning tarkibiy qicmi bo‘lgan metodologik bilim, ko‘nikma va malakalarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy va ijodiy faollik o‘qituvchining o‘z kacbiy tayyorgarligini muntazam orttirishiga, aksincha yuksak kacb-hunar madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuviga va ijtimoiy faolligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

4. Yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr bo‘lgan Musiqa o‘qituvchisi, o‘z navbatida yuksak ma’naviyat va madaniyat cohibi, milliy ictiqlol mafkuraci va g‘oyalarini singdirgan Shaxs sifatida, ta’lim-tarbiya jarayonidagi ictiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etish orqali, jamiyat taraqqiyotiga munocib hisca qo‘shadi, hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola biladi.

5. Musiqa o‘qituvchisini tayyorlashda kacbiy tayyorgarlikning tarkibiy qimlari, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr va Shaxs sifatidagi xususiyatlarini yaxlit holda tacavvur qilib, ularning o‘rtacidagi uzviylikni amalga oshirish zarur.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (mahlumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Tayanch tushunchalar:

Musiqa o‘qituvchisi, ta’lim, qonun, professiogramma, kadrlar tayyorlash, DS, talab.

NAZORAT UChUN SAVOLLAR:

1. Ta’lim muassasalari pedagog-xodimlari va ishtirokchilarining huquq va majburiyatları haqida nimalarni bilasiz?
2. Ta’lim ishtirokchilarining boshqa tartibining xuquq va majburiyatlarichi?
3. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi va kafolatlari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qaysi bobি va qaysi moddasi bilan

¹³ Ҳасанбоева О. ва бошқалар. Педагогика тарихи (Ўқув кўлланма). - Т.: “Ўқитувчи”, 1997. – 86-91 6.

tartibga solinadi?.

4. Mamalakatimiz ta’lim islohatlarida ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatları “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qaysi bobি va nechanchi muddasida belgilab berilgan?.

5. Ta’lim oluvchilarning majburiyatları Qonunning qaysi bobি va muddasida belgilab berilgan?.

6. Ta’lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo‘yiladigan talablar Qonunning qaysi bobি va muddasida belgilab berilgan?.

7. Ta’lim oluvchilarni vaqtincha yashash joylari bilan ta’minalash Qonunning qaysi bobি va muddasida belgilab berilgan?.

8. Mutaxassis modeli bu?.

9. Yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan ma’rum bo‘lgan bolalarni o‘qitish va ularning to‘liq ta’minoti Qonunning qaysi bobি va muddasida belgilab berilgan?.

10. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash Qonunning qaysi bobি va muddasida o‘z aksini topgan?.

11. "Didaktika"ning mazmunini nima tashkil etadi?.

12. Musiqa didaktika nimani o‘rganadi?

13. Musiqa didaktikaning tahlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari nimalar?.

14. O‘qituvchi musiqa to‘garagi rahbarining pedagogik vazifalari nimalardan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

11.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

12.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

13.Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Silymanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

14.O.S. Frolova. Formirovanie innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povышениya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

15.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

16.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

17.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlar:

18.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

19.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

20.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

21.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.

22.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

2-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASI O‘QITISHNI LOYIHALASH

REJA

1.Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni ishlab chiqish.

2.Didaktik o‘yinli texnologiyalarning Oliy ta’limda musiqa ta’limi fanlarini o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishdagi o‘rni.

3.Oliy musiqa ta’limi metodikasini fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo‘llash.

1. Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni ishlab chiqish.

Musiqa pedagogikasi - musiqiy ta’lim va tarbiya krnuniyatları tugrisidagi fan. U pedagogika, psixologiya va musiqashunoslik kabi kator gumanitar fanlar integraqiyasi asosida yuzaga kelgan, uz maksad va vazifalariga, ma’lumotnomasi va ilmiy apparatiga ega bulgan mustakil fan sanaladi. Musiqa pedagogikasining asosiy vazifalari: musiqa pedagogikasining nazariy va amaliy muammolari xamda krnuniyatlarini ishlab chikish; umumiyligi va maxsus musiqiy ta’lim ta’lim mazmunini takomillashtirish; musiqiy faoliyat konuniyatları, tamoyillari, shakl va kurinishlarini, musiqiy pedagogika metodlari va texnologiyalarini aniklash va tizimlashtirish; musiqiy-pedagogik jarayonni musiqa-pedagogika san’ati va

madaniyatida yaxlit jarayon sifatida o'rganish; musiqiy ta'lismi va shaxe tarbiyasi muammolarini o'rganish; O'zbekiston musiqiy-pedagogik madaniyati boy an'analarini o'rganish va rivojlantiripq musiqiy ta'lismi va tarbiya jarayoniga innovaqion texnologiyalarni joriy kilish va sh.k. Musiqa pedagogikasi fanining predmeti musiqiy-pedagogik jarayon moxiyati va konuniyatlarini ochib beradigan musiqiy ta'lismi va tarbiya nazariyasi va amaliyoti masalalaridir. Zamonaviy musiqa, pedagogikasining metodologik asoslari milliy va umuminsoniy ma'naviy kadriyatlar, O'zbekiston musiqiy san'ati va madaniyati; dunyo musiqiy san'ati va madaniyati; zamonaviy musiqashunoslik (musiqa tarixi va nazariyasi); musiqiy etika va estetika - musiqa falsafasi; musiqiy soqiologiya; musiqa pedagogikasi va psixologiyasi; musiqiy ta'lismi va tarbiya metodikasi (umumi, maxsus, maktabgacha, maktabva professional musiqiy ta'lismi va tarbiya metodikalari); musiqiy ta'lismi va tarbiyaning xususiy metodikalari (vokal pedagogikasi, cholgu ijrochiligi, vokal-xor ta'lismi va tarbiyasi va sh.k. metodikalari). O'zbekiston musiqa pedagogika fani uchun Sharkning buyuk allomalari ibn Sino, Foroboiy, Jomiy, Navoiy va boshkalarning ilmiy merosi katta axamiyatga ega. Musiqa pedagogikasi fani tadkikot yunalishlari va metodlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lismi to'g'risida» Konuni va mamlakatning birinchi Prezident I.A.Karimovning ta'lismi va tarbiyaga oid fikrlari bilan belgilanadi. Musiqa pedagogikasi pedagogika, musiqashunoslik, psixologiya, fiziologiya, etika, estetika, madaniyatshunoslik, falsafa kabi fundamental fanlar, shuningdek musiqiy ta'lismi va tarbiyaning umumi va xususiy metodikalariga tayanib ish kuradi.

Musiqa pedagogikasi soualari: musiqa pedagogikasi tarixi, xalk musiqa pedagogikasi, umumi musiqa pedagogikasi va musiqiy-badiiy pedagogika, maxsus musiqiy ta'lismi pedagogikasi, musiqiy ta'lismi va tarbiyaning xususiy metodikalari. Musiqa pedagogikasining asosiy bulimlari: musiqa pedagogikasining umumi asoslari, musiqiy tarbiya nazariyasi, musiqiy ta'lismi nazariyasi, musiqiy ta'lismi va tarbiyani tashkil kilish va boshkarish asoslari.

2. Musiqiy-pedagogik ta'limga maqeadi va vazifalari. Musiqiy-pedagogik ta'limga zamonaviy konsepqiyasini milliy istiklol mafkurasiga, ilgor metodologiyaga, zamonaviy musiqa pedagogikasi yutuklariga va ilgor pedagogik texnologiyalarga asoslangan, musiqiy-pedagogik ta'limga uzuksizlik, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberallashtirish tamoyillari asosiga kurilgan karashlar tizimi sifatida tasavvur kilish mumkin.

Xozirgi boskichda oliy 5 musiqiy-pedagogik ta'limga rivojlantirishning asosiy yunalishlari quyidagilardan iborat: bitiruvchilarni kasbga yunaltirish va xar tomonlama kasbiy tiklanishini bozor munosabatlari xamda jamiyatni demokratiyalashtirish talablariga muvofik tarzda sifat jixdtidan yangi darajaga kutarish»; kasbiy va shaxsiy ijodga kizikishni ragbatlash, o'qitishning faol

shakllaridan foydalanish, mulokot uchun psixologik kulay va sermaxsul sharoitlarni yaratish xisobiga rakobatbardoshlik, uz-uzini rivojlantirishga yunalganlik, yuksak madaniyat va ma'naviyat namunalariga ergashish kabi sifatlarni shakllantirish uchun pedagogik sharoitlarni ta'minlash; musiqa fakultetlari bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashishini ta'minlaydigan mexanizmni ishlab chikish. Musiqiy-pedagogik ta'lim maksadi va vazifalari musiqa pedagogikasi konsepqiysi va uni rivojlantirishning asosiy yunalishlaridan kelib chickan xolda belgilanadi.

Uzluksiz musiqiy-pedagogik ta'limning maqsadi - rakrbatbardosh malakali kadrlar **musiqiy** va musiqiy pedagogik ta'lim tizimi uchun mutaxassislarni tayyorlash.

Uzluksiz musiqiy-pedagogik ta'limning yetakchi vazifasi - bulajak o'qituvchi, ma'naviy yetak shaxeni tarbiyalash. Bu vazifa kasbiga muxabbat, Vatan ravnaki uchun kaebning muximligi va axamiyatini anglab yetish bilan bog'liq. Musiqa o'qituvchisi ilmiy-gumanistik dunyokarash, faol ijtimoiy, xayotiy poziqiyaga ega bulishi, doimiy uzgarish va rivojlanishda bulgan madaniyatda uz-uzini belgilashga kodir bulishi kerak. Bulajak o'qituvchi yuksak darajadagi insonparvarlik madaniyatiga ega bulishi lozim. Bulajak musiqa o'qituvchisi, pedagog-musiqachining musiqiy-estetik madaniyatini uning umumiy ma'naviy madaniyati uзви kismi sifatida shakllantirishga alovida e'tibor karatish lozim.

Musiqiy-pedagogik ta'lim chukur kasbiy bilim, malaka va klinikmalar, ijodiy saloxiyatga ega bulgan keng profilli, kup aspektli umummadaniy, umumkasbiy pedagogik va maxsus musiqiy tayyorgarlik asosida musiqiy pedagogika va tanlangan ixtisoslik soxasida doimiy uz-uzini rivojlantirish va takomillashtirishga kodir mutaxassisni shakllantirishi lozim.

Shaxsning ma'naviy extiyojlari va ijodiy kobiliyatlarini shakllantirish, talabaning o'quv-bilish, ijodiy faolligi va mustakilligini shakllantirish, mutaxassis tayyorlash sifati o'quv-tarbiya jarayonini tashkil kilish sifatiga, uni optimallashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, musiqa pedagogikasi innovaqion texnologiyalaridan samarali foydalanishga kup bog'liq.

Uzluksiz oliy musiqiy-pedagogik ta'lim strukturasi. Uzluksiz musiqiy-pedagogik ta'lim strukturasi ulakonli ta'lim olish uchun sharoit yaratish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi boskichini realizaqiyalash uzluksiz musiqiy-pedagogik ta'limning butun jarayonini uning barcha boskichlarida uzaro alokadorlik va uзвиlik asosida takomillashtirishni talab kiladi. Uzluksiz oliy musiqiy-pedagogik ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash strukturasi: maktabgacha - maktab - akademik liqey va kasb-xunar kolleji - OUYU (1 -bakalavriat yunalishi - musiqiy madaniyat o'qituvchisini, kollej musiqachi-pedagogini tayyorlash;

magistratura ixtisosligi -ilmiy xodim va OUYU o'qituvchilarini tayyorlash) -

musiqa-pedagogika ilmi - ITI - OUYu - fan va amaliyot yutuklarini musiqiy, musiqiy-pedagogik ta'lim jarayoniga tatbik kilish (maktabgacha va mактаб та'лими, musiqiy va urta maxsus, oliy o'quv yurti tayyorgarligi). pedagogika kollejlari maktabgacha tarbiya muassasalari musiqiy raxbarlarini, musiqiy ta'lim darsnii o'qitish xuko'qiga ega bulgan boshlangich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlaydi.

Bakalavr - bulajak musiqiy ta'lim soxasi mutaxassisи tulakrnli kasbiy tayyorgarlikka ega bulishi uchun OUYu o'qituvchisining faoliyati: ma'naviy extiyojlar, kasbiy va musiqiy madaniyatni shakllantirish uchun sharoit yaratish; talabaning ijodiy kobiliyatları va shaxeini rivojlantirish; bulajak musiqiy madaniyat o'qituvchisida, pedagog-musiqachida yuksak kasbiy maxorat va fikrlashni, tarbiya muammolariga keng konseptual yondashuvni, pedagogik vazifalarni xal kilishda ijodiy mustakillik va tashabbuskorlikni shakllantirishga karatilgan bulishi kerak.

Musiqiy ta'lim o'qituvchisi:

- fikrlash doirasi keng, musiqiy tafakkur darjası yukori, estetik did va karashlari shakllangan;
- musiqiy-pedagogik maxoratga ega;
- yuksak ma'naviy-axlokiy fazilatlar va kasbiy sifatlar, ijodiy saloxiyat soxibi;
- tanlangan ixtisosligi (musiqa pedagogikasi, maxsus musiqiy tayyorgarlik va sh.k.) bo'yicha kup kirrali umummadaniy, kasbiy va maxsus tayyorgarlikka asoslangani xolda uzluksiz uz-uziga ta'lim extiyoj va kobiliyatları shakllangan bulishi kerak.

Bolalar va yoshlar musiqiy ta'limi umumiyyatni maksadlarini amalda tatbik kilish - umuminsoniy va milliy madaniy kadriyatlar xamda musiqiy san'at an'analarini uzlashtirish jarayonida shaxsning ma'naviy-axlokiy sifatlarini rivojlantirish, uning musiqiy madaniyatini ma'naviy madaniyatning u兹viy bir kismi sifatida shakllantirishga fakat yuksak ma'naviyatli, musiqiy-estetik va kasbiy tayyorgarlikka ega bulgan o'qituvchigina kodir buladi.

Musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonining mazmuni. Musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonining mazmuni: nazariy bilimlar, bilishga oid, ijodiy, badiiy-texnik, maxsus va kasbiy, jumladan metodik va boshka bilim, kunikma va malakalar. Musiqiy ta'lim mazmuni o'quv fanlari va tanlov fanlari bo'yicha darsliklarda uz aksini topgan, uzlashtirish jarayoni turli shakllarda va rang-barang texnologiyalardan foydalangan xolda amalga oshiriladi. Musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonining umumiyyatni ijodiy asosi musiqa san'ati va madaniyati - musiqiy-badiiy obrazlar va xodisalarda aks etgan, axborot shaklida va bulajak musiqiy ta'lim o'qituvchisi, pedagog-musiqachi idrok etishi va uzlashtirishi uchun takdim kilingan barcha-barchasini uz ichiga oladi

Musiqiy-pedagogik ta’lim tamoyillari musiqiy ta’lim jarayonini tashkil kilishning asosi, raxbar goyasi, asosiy koidalari va talablari sanaladi, musiqiy, musiqiy-pedagogik ta’lim samaradorligini takomillashtirish konuniyatlarini xamda vazifalaridan kelib chikadi. g.

Musiqiy-pedagogik ta’lim strukturasi va mazmuni:

Musiqiy madaniyat o‘qituvchisi shaxsinin? kasbiy-pedagogik yunalganligi, uning uziga xosligi pedagogika va musiqa san’atining sintezidan iborat.

Parametrlari (o‘lchamlari): Pedagogik yunalganlik. Pedagogik e’tikodni, egallanayotgan karashlarni nazariy jixatdan anglash va umumlashtirish kobiliyatlarini shakllantirish; pedagogik xodisalarini tizimli taxlil kilish asosida turli pedagogik vaziyatlarni mustakil xal kilish kunikmalarini egallah; nazariya va amaliyotning doimiy birligi.

Kasbiy yunalganlik. Maxsus bilimlarning ilmiyligi, falsafa, estetika, psixologiya, pedagogika va o‘qitishning maxsus metodikasi funkqional koidalarni xisobga olgan xolda, ta’lim mazmunining uziga xosligini tushunish va ijodiy uzlashtirish, maxsus bilim va malakalarni egallahning asosi sifatida musiqiy tafakkurni rivojlantirish.

Bulajak musiqiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy va maxsus malakalari. O‘qituvchining asosiy sifatlari uning umummetodologik va psixologik-pedagogik tayyorgarligi jarayonida, maxsus kasbiy bilimlari ixtisoslik fanlarini o‘qish, amaliy faoliyat turlarini uzlashtirish jarayonida shakllantiriladi[^] Masalan, musiqiy-nazariy va adabiy materialni saralash va kurish, o‘quvchyga ta’sir vositasi va uning emeqional soxasiga ta’sir vositasi sifatida ifodali natk ni egallah; dars vaktini anik taksimlash; dars vaziyatidan kelib chikib tez da uzini kayta kurish; uz xatt-xarakatlarini nazorat va baxolash; talabalarning yoshi va tayyorgarlik darajasini xisobga olgan xolda ular bilan mulokot uslubini (manerasini) topish bilan bog‘liq bilim va kunikmalar. (MMo‘qituvchisining maxsus bilimlari va malakalari pedagogik va badiiy (masiqiy) - pedagogik vazifalarni yoki musiqiy-pedagogik (badiiy-pedagogik) vaziyatlarni xal qilish jarayonida namoyon buladi. Pedagogik vazifa o‘quv-tarbiya jarayonining umumiyligini qonuniyatlarini egallah bilan, musiqiy-pedagogik vazifa esa muayyan bilim, malaka va kunikmalarni uzlashtirish bilan bogliq.

Pedagogik va musiqiy-bilish vazifalarini xal kilish o‘qituvchidan faol pedagogik fikrlashni talab etadi. Musiqiy ta’lim o‘qituvchisi uchun musiqiy taassurot, musiqiy erudiqiya, musiqiy fikrlash doirasining kengligi, ijrochilik sifatlarini rivojlantirish, umummadaniy darajasini oshirish, musiqa materialini o‘rganishda o‘qituvchining uzi va talabalar oldida yuzaga keladigan kiyinchiliklar, ularni bartaraf kilish yullari va metodlarini belgilash, quyilgan vazifalarga muvofik musiqiy faoliyat turlaridan foydalana bilish juda muxim. [Xususiy bilim, kunikma

va malakalar: musiqa nazariyasi va tarixini bilish, musiqiy asarni taxlil kila bilish, cholgu, vokal, xor dirijerligini professional darajada egallash, bolalar xori bilan ishslash, xususiy musiqiy-metodik, psixologik-pedagogik bilimlar va b.

Musiqa - pedagogik ta'limi mutaxassilagini asosiy yunalishlari. Musiqiy-pedagogik ta'lim mutaxassisiga tayyorlarligining asosiy yunalishlari. Maktabda musiqa fanini o'qitishning uziga xosligi kaebning ikki tomoni: umumpedagogik va maxsus tomonini sintezlashdan iborat bulib, musiqa madaniyatni o'qituvchisini tayyorlashga kompleks, tizimli yondashuv talab etiladi. Musiqiy-pedagogik ta'limning asosiy vazifasi - ma'anviy madaniyatni, umumkasiy madaniyatni, umumiyyusiqiy-estetik madaniyatni shaxsning ma'naviy madaniyatining kismi sifatida, shuningdek, ijrochilik madaniyatni, kasbiy faoliyatda ijodkorlikni tarbiyalash. Musiqiy-pedagogik faoliyat maxsus va umumiyy qobiliyatlar bilan tavsiflanadi: 1-gurux - pedagogik kobiliyatlar: konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ, gnostik kobiliyatlar, pedagogik tasavvur, takt, pedagogik kuzatuvchanlik, talabchanlik, dikkatni taksimlash; 2-gurux -musiqiy kobiliyatlar: musiqani emeqional-obrazli idrok kilish, obrazli fikrlash, musiqiy-eshitish tasavuri, musiqiq xotira. Bulajak musiqiy ta'lim o'qituvchisining shartli iodeli o'qituvchining umumkasbiy va maxsus bilim, kunikma va malakalari tizimi, uning musiqiy-estetik, musiqiy-nazariy, dirijerlik-xor, vokal, ijrochilik va dirijerlik, musiqiy-pedagogik va metodik tayyorlarligiga quyiladigan talablar sifatida namoyon buladi. Bularning xammasi pedagogikaga va musiqa san'atiga, ijodiy faoliyatga kizikish asosida shakllantiriladi.

O'qituvchi shaxsining asosiy sifatlari uning umummetodologik va psixologik-pedagogik tayyorlarligi, maxsus kasbiy bilimlar esa ixtisoslik fanlarini uktitish, amaliy faoliyat turlarini uzlashtirishda shakllantiriladi.

Musiqa ta'lim o'qituvchisining badiiy-pedagogik faoliyati, musiqiy-pedagogik maxorat shaxs ijodkorligining aloxida turidir. Uning uziga xosligi maktab o'quv-tarbiya jarayonida musiqa san'ati tabiatiga, u bilan mulokotning uziga xos usullariga moe keladigan kommunikativ alokalarni yaratishga yunaltirilganligidan iborat.

Musiqa ta'lim o'qituvchisining faoliyati: dars utish, keng kamrovli sinfdan tashkari ishlar, to'garak faoliyati, musiqiy kechalar, musiqiy suxbatlar, lektoriylar, tanlovlardan tashkil qilish, maktab badiiy xavaskorligiga raxbarlik kilish, konsertlar, musiqiy spektakllarga borishni tashkil kilishdan iborat.

Bulajak musiqiy ta'lim o'qituvchisi quyidagi yunalishlarda faoliyat olib borishga tayyor bulishi kerak: Tashkiliy. O'qituvchining o'quv-tarbiya jarayonini rejalshtirish va tashkil kilish bo'yicha maksadli xatti-xarakatlar. O'quv-tarbiya ishlarining turli shakl va kurinishlarini tashkil kilish, uzining ^{va} talabalarning xatti-xarakatlarini rejalshtirish. Bilish. O'qituvchining talabalarning fikrlash faoliyatini

boshkarish, uz intellektual darajasini oshirishga karatilgan ishlari. Emotsional. O'qituvchining musiqa san'atiga munosabati, uning xayotdagi guzallikka reakqiya kilish kobiliyati, talabalarda guzallik xissini, musiqa san'ati va madaniyatiga kizikishni tarbiyalashga intilishi bilan belgilanadigan xatti-xarakatlari. Tadqiqotchilik. O'quv jarayonini takomillashtirish, uz kasbiy maxorat darajasini oshirish, uz pedagogik faoliyatini taxlil eng yaxshi o'qituvchilar ish tajribasini umumlashtirish, samarili metodik usullardan foydalanish, amaliyotda pedagogik eksperimentni amalga oshira bilish.

Bo'lajak musiqiy madaniyat o'qituvchisi 8 ta umumpedagogik vazifani: axborot, yunaltirish, rivojlantirish, safarbar kilish, konstruktiv, kommunikativ, tashkilotchilik va tadkikotchilik xamda musiqiy ta'lim o'qituvchisining 2 ta maxsus vazifasini: ijrochilik va musiqiy-ma'rifatchilik vazifasini bajarishga tayyor bulishi kerak.

2.Didaktik o'yinli texnologiyalarning Oliy ta'limda musiqa ta'limi fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'qitishdagi o'rni.

Musiqa - pedagogik ta'limi tashkil etishni o'qituvchining faoliyati. O'qituvchining musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonini tashkil qilish bo'yicha faoliyati. OUYu musiqa-pedagogika (san'at) fakulteti o'qituvchisining kasbiy faoliyati quyidagi yunalishlarni uz ichiga oladi: o'quv-tarbiya 9auditoriya mashgulotlarini tayyorlash va utkazish, talabalarning auditoriyada va auditoriyadan tashkari mustakil ishlariga raxbarlik (to'garaklar, TITI), ta'lim - tarbiya - rivojlantirish; ilmiy-metodik (o'quv va ishchi dasturlarni yaratish, reja, kompleks, o'quv, metodik kullanma, tavsiyalar, darsliklar va b. o'quv adabiyotlarini yaratish); ilmiy tadkikrt (ilmiy makrla, ma'ruza, monografiya va sh.k. tayyorlash); tashkiliy-metodik (kafedra, turli metodik birlashmalar, kengashlar va sh.k. ishtiroy eitsh); musiqiy-ijodiy (konsert faoliyati, ijodiy xisobotlar bilan chikish, talabalarning chikishlarini tashkil kilish va sh.k.); ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy (gurux murabbiyligi, talaba yoshlar uchun suxbatlar, talabalar turar joylarida, ijarada va shaxsiy uylarida yashovchi talabalar bilan olib boriladigan ishlar, jamoa ijtimoiy xayotida katnashish).

O'qituvchi-musiqachi kasbiy faoliyat strukturasini quyidagicha aks ettirish mumkin:

o'kituvchi

metodist

men

jamoatchi

olim

raxbar

musiqachi

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan ish tizimi (texnologiyasi) uzaro bogliq bulgan quyidagi komponentlardan tashkil topadi: maksad belgilash, pedagogik vositalarni tanlash, ulardan foydalanish (ta’lim jarayonining borishi), uni baxolash va korrekqiyalash. Tizim komponentlarining uzaro bog‘liqligi reproduktiv va produktiv o‘quv-bilish malakalarini rivojlanirishni ta’minlaydi. Butun tizimning rivojlanishi shakllantiriladigan sifatlarning rivojlanishiga muvofik kechadi, malakalar rivojlangani sari maksadlar, pedagogik vositalar (mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar, o‘qituvchi va jamoaning talabalarga ta’sir metodlari, ta’lim vositalari va sh.k.) uzgarib boradi.

O‘quv jarayoni samaradorligining muxim sharti o‘qituvchi va talaba urtasida uzaro xurmatga asoslangan xamkorlik sanaladi.

Musiqa o‘qitish jarayonining maqsadi, vazifalari, mazmuni va shakllari.

Musiqiy ta’lim jarayoni kasbiy va musiqiy-pedagogik ta’limning tarkibiy kismi sanaladi. Musiqa o‘qitish jarayonining maksadi: musiqa san’ati va madaniyati soxasida professional kadrlarni tayyorlashga jamiyatning extiyojini kondirish, barcha zamonaviy talablarga javob Bera oladigan urta maxsus ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash. O‘qitishning mazmunidan farkli ularok, ta’lim mazmuni - insonni rivojlanib borayotgan madaniyatga, bizning vaziyatda musiqiy va musiqiy-pedagogik madaniyatga oshno kilish tadbiri. Aynan u musiqa o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va talaba xamkorligi natijasida shakllantirilishi kerak bulgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni belgilaydi. Musiqa o‘qitish jarayoni vazifalari: shaxsiy sifatlar, ma’naviy madaniyat, umumiyyusiqiy-estetik madaniyat, kasbiy madaniyat (maxsus musiqiy va pedagogik madaniyat)ni tarbiyalash.

Musiqa o‘qitish jarayonining mazmuni: nazariy bilimlar, bilish, ijodiy, badiiy-texnik, maxsus va kasbiy, jumladan metodik va b. bilimlar, malaka va kunikmalar. Musiqa o‘qitish mazmuni asosiy o‘quv fanlari va tanlov fanlarida aks ettirilgan, uzlashtirish jarayoni turli shakllarda va rang-barang texnologiyalardan foydalangan xolda amalga oshiriladi. Musiq o‘qitish jarayonining umumiyy ijodiy asosi musiqa san’ati va madaniyati - musiqiy-badiiy obrazlar va xodisalarda aks etgan, axborot shaklida va bulajak musiqiy ta’lim o‘qituvchisi, pedagog-musiqachi idrok etishi va uzlashtirishi uchun takdim kilingan barcha-barchasini uz ichiga oladi.

Oliy musiqiy ta’lim jarayonida faoliyat turlari: o‘qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyati (o‘qitish) va talabaning o‘quv-musiqiy faoliyati (uqish). Bu faoliyat turlari xamkorlik, sheriklik asosiga kuriladi va badiiy-ijodiy xarakterga ega buladi.

Eshitish faoliyat, musiqani idrok etish esa jarayon sifatida talabaning bili shva musiqiy-ijodiy malaka va kobiliyatlarini asarning badiiy, goyaviy-estetik

mazmunini, uning aloxida jikirralari, elementlari yoki musiqiy-ifodalilik komplekslarini yaxlit, emoqional anglashilgan tarzda idrok etish asosida shakllantirish va rivojlantirishning asosi va ayni paytda natijasi xamdir. Asarning musiqiy-badiiy obrazini asarni talabaning shaxsan idroki, umumiyligi maxsus musiqiy kobiliyatlarini, intellektual, ijodiy va artistik kobiliyatlarini rivojlantirmay turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Badiiy-ijrochilik faoliyati: kuylash, dirijerlik, cholgu ijrochiligi va sh.k. Musiqiy ijod: yozish, improvizatsiya, ijro talkin variantlarini yaratish, ijodiy musiqalash, turli tipdagi va murakkablikdagi badiiy-ijodiy vazifalarni xal kilish va sh.k. (Misollar keltiriladi).

Musiqiy ta'limni tashkil qilish shakllari: yakka tartibda (individual), gurux va jamoa, frontal. Musiqa o'qitish jarayonida maxsus musiqa (tarixiy-nazariy, musiqiy-metodik va sh.k.) fanlarining nazariy kismi ma'ruza shaklida o'qitiladi. Bunda ma'ruzaning turli tiplari: an'anaviy, muammoli, va sh.k. lardan foydalilaniladi. Seminar (nazariy, seminar-munozara va sh.k.) oralik (nazariydan amaliyga utish) shakli sanaladi.

Musiqa o'qitishni tashkil qilishning asosiy shakli amaliy mashgulotlardir. Maxsus ijrochilik fanlari: cholgu ijrochiligi, vokal, dirijerlik va b.; ijodiy-amaliy fanlar (aranjirovkalash, kompoziqiya va b.) bo'yicha amaliy mashgulotlar yakka tartibda utkaziladi. Ijrochilik fanlari sinflarida yakka tartibdagi o'qitishni kichik guruxdarda, juftliklarda ishlash bilan birlashtirish yaxshi samara beradi. Guruxda mashgulotlar ansambl, xor, orkestr va sh.k.; tarixiy-nazariy, musiqiy-metodik fanlar bo'yicha olib boriladi. Kupincha bita fani o'qitish jarayonida barcha shakllardan birdek foydalilaniladi. Masalan, xor sinfi bo'yicha -partiyalar bo'yicha ishlash, yakkaxon (solist)lar bilan, ijrochilar guruxi-ansambl bilan, butun jamoa bilan ishlash mumkin.

Musiqa o'qitish jarayonini tashkil qilishning uziga xos (spesifik) shakllari repetiqiya (taniştirish, korrekqiyalash, orlinar- ishchi, yigma, «progon», asosiy), akademik konsert, konsert-sinf, konsert sanaladi. Musiqa ta'limida eng kichik mantiqiy birlik musiqiy-pedagogik yoki badiiy - pedagogik vaziyatdir,

Boshqa shakllar: ijrochilik va pedagogik amaliyot, maxsus kurslar, to'garaklar (ilmiy, ijodiy), tanlovlari, konsertlar, ma'ruza-konsertlar, musiqiy faoliyatning ma'rifiy va tashvikot shakllari, ekskursiyalar, ijodiy kechalar, disputlar, munozaralar, konsertlar, musiqiy spektakllar, muzeylarga tashrif va sh.k.

Musiqa o'qitish jarayonida nazorat shakllari: akademik tinglash, akademik konsert (oralik yoki yakuniy nazorat), nazorat darsi, kolokvium, nazorat ishi, surov, test, ijodiy i shva topshirikdar. Kurs va bitiruv malakaviy ishlar aloxida axamiyatga ega.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil kilish shakllari uy vazifasi, mustakil ish, adabiyotlarni o'rganish (konspekt yozish, annotaqiyalash), axborot, ma'ruza,

referat, takriz tayyorlash, konsertga, chikishga tayyorgarlik, musiqiy asarni mustakil taxlil, eskiz ijsro etish, metodik ishlanmalar, ko'rgazmali kurollar tayyorlash, musiqiy materialni tuplash va ateriallar tayyorlash va boshka ijodiy ish turlaridan iborat.

Musiqa - ijrochiligi fanlari o'quv jareniida yangi pedagogik texnologiyalari qirtish xususiyati. YaPT larni musiqa-ijrochilik fanlarini o'qitish jarayoniga tatbik kilishning uziga xosligi. Ijsro sinflarida, bulajak pedagog-musiqachini tayyorlash jarayonida quyidagi bilish va ijodiy malakalar shakllantirilishi kerak: musiqiy asar bilan ishlashni boshlashdan avval uni shaxsiy idrok etish; musiqiy asarni musiqiy-nazariy taxlil kilish; asarning ijrochilik taxlilini bajarish; badiiy vazifalar va murakkabliklarni aniklash; asarni mustakil o'rganish; uni yaxshi ijrochilik saviyasida namoyish eta olish (uzicha talkin kilish, interpretaqiyalash); asarni o'qituvchi, pedagog-musiqachi nuktai nazaridan musiqiy-metodik taxlil kilish. Yuqorida sanab utilgan vazifalardan kelib chiqqan xolda ijrochilik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish ma'lum uziga xosliklarga ega. Masalan, rivojlantiruvchi va muammoli o'qitish texnologiyalari quyidagicha realizaqiyalanadi.ch/), o'rganiladigan ishchi musiqiy-pedagogik material xajmini ortttirish bilan; 2) yangi vazifalarni belgilagan xolda o'quv materialini tez sur'atlarda utish (eskiz o'rganish, saxifadan o'qish, ijodiy musiqalash, talkin variantlari, talabaning asarni uzlashtirish bo'yicha mustakil ishlari va b.); 3) mashxajmini kengaytirish (asarning tarixiy-nazariy, ijrochilik taxlili, ijroda, badiiy—texnik kiyinchiliklarni aniklash va ularni kulay yullar bilan xal kilish); 4) talabalar uchun mustakil badiiy-ijodiy, ijrochilik faolligini shakllantirishga maksimal kumaklashadigan mustakil ishlar tizimini (variantlarini, reproduktivdan produktivga) yaratish; 5) muammoli (musiqiy-pedagogik, badiiy-pedagogik) vaziyatni yaratish. Masalan, musiqiy asarni shaxsiy idrok kilish jarayonida – "Klaster", "Kubiklar", "Assoqiaqiyalar" muallif g'oyasi bilan bog'liqlikda musiqiy asarni talkin kilish, ifodalilik vositalarini izlash, yangi yechimlarni izlash va sh.k. shuningdek, «Kiyoslash-analogiya», «musiqiy umumlashtirish», «Insert» kabi texnologiyalardan foydalaniladi.

Mashgulotlarda ta'limning yakka tartibdagi va kichik guruxlardagi, juftliklardagi va sh.k. shakllarini birlashtirish interfaol texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi, masalan: maktab dasturiga kiritilgan aynan bir asarning eng yaxshi talinini ijrochilar yoki talabalarning zlari/Miya xujumi", "Tarozi", "Elpigich" va b. Texnologiyalardan foydalangan xolda tanlashi, taxlil, muxokama kil ishi mumkin.

Uyin texnologiyalaridan (Musiiy-pedagogik uyin, Badiiy-modellashtiruvchi uyin), rolli uyinlardan: masalan, ""Men musiqa tankidchisiman", "Men ijrochiman", "Men bastakorman", "Minikonsert", "Men improvizaqiyachiman", "Ijodiy

ustaxona" (bastakorning, ijrochining ijodiy uslubini o'rganish maksadida), "Badiiy assoqiaqiyalar", "rang va musiqa""Konsertdan keyingi intervyu", "Breyn-ring" "master-klass" va sh.k. foydalanish. Badiiy-ijodiy jarayonn modellashtirishi, o'quv loyushlashtirish texnologiyalari, variaqiyalash, improvizasiyalash, stilizaqiyalashtirish (xalq musiasi uslubida, davr uslubida, bastakor uslubida) va b. yaxshi samara beradi. Masalan, asar modelini, musiqiy asar ijrosining uz variantini yaratishdan foydalanish mumkin. Loyushlashtirish: musiqiy asar ustida ishlarni, uni talabalarga yetkazib berishni (musiqiy asarni idrok etishni, uning namoyishini, badiiy-pedagogik taxlilini tashkil kilish) va sh.k. loyixalashtirish mumkin. Musiqa o'qitish jarayoniga YaPT larni muvaffakiyatli tatbik kilish mutaxassis tayyorlash sifati va darajasining yuksalishiga xizmat kiladi.

Badiiy va texnik birligi prinzipni va musiqa asarni badiiy ijro etishni texnologik xolati. Badiiylik va texnikaning birligi tamoyili musiqa, musiqiy asarni yaratish va ijro kilish jarayonida musiqiy-badiiy obraz yaratish konuniyatlariga asoslanadi. Musiqa o'qitish jarayonini tashkil kilishda, uning mazmuni, uning barcha komponentlari da, badiiy mazmunni, musiqa san'ati obrazini xamda musiqiy ifodalilik vositalarini idrok etish va tushunish jarayonida realizatsiyalanadi. Musiqa o'qitish jarayonida musiqiy-ijodiy faoliyatning barcha tur va shakllari badiiy xarakterga ega. Bilim, kunikma va malakalar - asosiy maksadga -asarning musiqiy-badiiy obrazini idrok etish va ijroda ifoda etishga karatilgan vositalar (unga erishish ykdlari)dir. Bunda texnika ustida ishslash ayni paytning uzi da badiiy vazifalarni (ifodalilik, obrazlilik) xal kilishga kumaklashadi. Talabalarga ijodiy vazifalar berish, texnik plandagi vazifalarni aynan bir topshirkning, tavsifning turli variantlarida badiiy-obrazli shakllarga «urash» (kunikma xosil kilish, intonaqiya ustida ishslash va sh.k.), tasavvurlarni badiiy va xayotiy tajriba bilan boglispasga muvofik. Badiiylik va texnikaning birligi talabalarning uzi musiqiy asarning badiiy obrazini talkin kilish: asarning ijro goyasi va rejasini, ijrochilik talkin variantlarini, improvizasiyalar yoki musiqiy asar modellarini tuzishga jarayoniga faol jalb kilinganida amalga oshadi. Bu talabalarning fantaziyasi, tasavvuri, ijodiy tashabbuskorligi ortishiga xizmat kiladi. Asosiysi, talabalar badiiy maksadlarga erishish uchun texnik vositalar - ijrochilik kunikma va malakalari, ma'lum darajadagi ijrochilik madaniyati talab etilishini anglab yetishlaridan iborat (musiqiy asar ustida ishslashgaoi misol keltiriladi).

Musiqiy asarni badiiy-ijrochilik uzlashtirish texnologiyasi. Asarning musiqiy-badiiy obrazini talkin kilish uchun talabalarning asarni shaxsan idrok kilishi talab etiladi. Bunda umumiyligida maxsus musiqiy kobiliyatlar, intellektual, ijodiy va artistik kobiliyatlarning kompleks rivojlanishi ta'minlanishi kerak. Asarni shaxsan idrok qilish quyidagi tartibda kechishi lozim: a) asosiy kayfiyatni aniklash; b) musiqiy ifodalilik vositalarini aniklash; v) badiiy obraz xususiyatlarini

o‘rganish; g) muallif poziqiyasini tushunib yetish; d) asarda uzi uchun shaxsiy mazmunni topa bilish. Bu yunalishlarning xar biri muammoli vazifalarning quyilishi bilan bog‘liq.

Ijrochilik sinflarida musiqiy asarni badiiy-ijrochilik uzlashtirish texnologiyasi (talari) quyidagi ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

1- boskich - asarni yaxlit musiqiy taxlil kilishdan maksad: asaarning badiiy-obrazli mazmunini muallif va ijrochining ifodalilik vositalarini aniklash va o‘rganish orkali oolib berish.

2- boskich - ijrochilik taxlili va ijrochilik rejasi, ijrochilik vazifalarini belgilash, ijro kiyinchiliklarini aniklash.

3- boskich - o‘rganilayotgan asar mazmuniga chukur kirib borish, badiiy mazmunni berish uchun zarur bulgan aniklangan ifodalilik vositalarini egallash, aloxida ijro vazifalari va kiyinchiliklari ustida ishlaganda musiqiy materialni bulaklash, to‘gallangan fragmaent (parcha)larni doimiy sintezlash, asarni yaxlit idrok etish, asmar yoki uning kismini eskiz ijro kilish, frazalar bo‘yicha ishlash, fraza-davr-kism- va sh.k.-yaxlit musiqiy asar tarzida birpashtirish.

4- boskich. Ijrochilik faoliyatining ijodiy ibtidosi yorin namoyon buladi. Takror ijro kilish tufayli ijro kilinayotgan asar moxiyatiga kirib boriladi, ifodalilik vositalaroit takomillashadi, yaxlit obraz yaratish, musiqiy asarning ijro konsepqiyasini amalga oshirish uchun badiiy-ifoda vositalari sintezlanadi. Asarni zaruriy, bir necha marta takrorlash davomida talabalar oldiga turli vazifalar quyilishi kerak. Turli boskichlarda og‘zaki usul va metodlardan foydalanish, assoqiativ fikrlashni faollashtirish: "Asar muallifi (mazmuni, goyasi shakli va sh.k.) bilan bog‘liq assoqiaqiyalar (tasavvurlar" nomli klaster tuzish, Sinkveyn tuzish - asardan olingan taassurotlarni (muallif uslubi, ijodi, shaxsi) rasmiylashtirishni, Asosiy qadriyatlar xayotiy va badiiy tasavvurlarni - xammasini asarni shaxsan idrok kilish asosida bajarishni topshirish mumkin. Asarning xarakteri, kayfiyati, obraziga toborra anik ta’rif berish, san’atning boshka turlariga oid (usha davr, uslub, yunalishdagi, obrazlar, kayfiyat uxshash bulgan) asarlari bilan assoqiaqiyalash; obrazga tobora anik og‘zaki ta’rif berish (chkka tartibdagi "Miya xujumi"); ruyxatdan asar xarakteriga tobora moe keladigan ta’rifni topish, uni kengaytirish va sh.k. topshiriklar berish mumkin. Talabaga ijrodagi kiyinchiliklarni mustakil aniklash va ularni xal kilish yollarini belgilashni topshirish mumkin.

Musiqiy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari. Axborot texnologiyalaridan foydalanish musiqa o‘qitish jarayoniga uygunlashib, uning samaradorligini oshiradi. Audio-vizual ko‘rgazmalilik (audio -ovoz, vizual - kurish) musiqa ta’limida katta axamiyat kasb etadi.

Ko‘rgazmali vositalar, nota va musiqiy material va b. Ularni berishning

texnik vositalari bilan birga muvaffakiyatli tanlangan, musiqa darsining murakkab tizimiga uygunlashganda; audio-vizual katordan foydalanishda extiyotkorlik va bosiklikka rioya kilingan musiqiy asarning emoqional-estetik va ongli idrok etish darajasi pasaytirilmaganda (zero musiqiy asar, avaval, eshitish sezgilari orkali idrok kilinadi) kuzlangan maksadlarga erishish mumkin. Yukori sifatli CD disklar, boshka multimediya vositalaridan nazariy musiqalashtirish; musiqiy aranjirovkalar, asar modellarini yaratishda (Musiqa studiya) foydalaniladi. CD disklar, MR-3 disklar va sh.k. ko'rgazmali material, elektron darslik sifatida va sh.k. foydalaniladi. Ulardan o'rgatuvchi, trenajer, nazorat va rivojlantirish dasturlari sifatida, uyin sifatida va b. Maksadlarda foydalanish mumkin. Samalan, ovozlashtirilgan savollar, topshiriklar, muschikiy misollar, illyustraqiyalar, videokator va b. Dan nazariy fanlarda, musiqa tarixi, o'qitish metodikasi, ijrochilik fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin. Pedagoglarning dars, mashgulotlari yozuvlaridan pedagogik amaliyatda foydalanish mumkin. Umuman axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin.

Axborot va kompyuter texnologiyalari talabalarga eng yaxshi ijro namunalarini CD disklar, MR-3 disklarda, internet orkali tinglash, ularning imkoniyatlaridan ta'lif va uz-uziga ta'lif jarayonida, eng yangi musiqa yangiliklaridan xabardor bulishda foydalanish imkonini beradi.

Musiqa ta'lif jarayonini zamонавиј талаблар дарасидаги ташкіл килиш учун мактаб мусиқа о'кув хонаси, олий та'lif музассалари аудиториясини замонавиј комптер техникаси, мусиқа жмозлари ва ш.к. билан та'minlash талаб килинади. Медиотека, Audio-vizuallashtirish хоналари, я'ни audio, video, kompyuter техникаси, lazer мусиқа марказлари ва ш.к. билан jixozlangan maxsus хоналар та'lif сифатини оширишга xizmat кил иши shubxasiz.

3.Oliy musiqa ta'lifi metodikasini fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Pedagogika, Musiqa pedagogikasi, tarbiya, ta'lif, ma'lumot, rivojlanish, ruhiy tayyorgarlik, mustaqil tarbiya, mustaqil ta'lif, bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik mahorat, didaktika.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Oliy musiqa pedagogika ilim sifatida.
2. Oliy musiqa - pedagogik ta'lifi maksadi va vazifalari.
3. Oliy musiqani - pedagogik ta'lifini uzviylik strukturasi.
4. Oliy musiqa - pedagogik ta'lifi jarayorini mazmuni.
5. Oliy musiqa - pedagogik ta'lifi mutaxassligini asosiy yunalishlari.

6. Oliy musiqa - pedagogik ta’limi tashkil etishni o‘qituvchisining faoliyati.
7. Oliy musiqa - pedagogik ta’limni o‘quv jarayonini maksadi, vazifalari, mazmuni va shakllari.
8. Oliy musiqa - ijrochiligi fanlari o‘quv jareniida yangi pedagogik texnologiyalari kirtish xususiyati.
9. Badiiy va texnik birligi, prinzipni va musiqa asarni badiy ijro etishni texnologik xolati.
10. Oliy musiqa ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
- 4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
- 5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

11.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

12.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

13.Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Silymanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

14.O.S. Frolova. Formirovanie innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povysheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

15.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

16.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘sishlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

17.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlari:

18.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

19.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

20.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

21.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.

22.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

REJA

1.Talabalar o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlar.

2. Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar.

3.O‘qituvchining o‘quv mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligi.

4.O‘quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo‘nalishlari, tiplari, funksiyalari hamda kelgusida rivojlantirish istiqbollari.

1.Talabalar o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlar.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi va kafolatlari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 5-bobi, 44-moddasi bilan tartibga solinadi. Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi. Ishlab chiqarish ta’limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o‘tmasdan professional ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli. Zarurat bo‘lganda professional ta’lim

tashkilotlari ishlab chiqarish ta’limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, oliy ma’lumoti bo‘lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo‘srimcha mashg‘ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari (Qonunning 5-bobi, 45-modda) ta’lim ishtirokchilari uchun o‘ta muhim jarayondir. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo’llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro’si davlat himoyasi ostida bo‘ladi. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta’lim oluvchilarining bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sinqlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o‘z shaoni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish; o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish; zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish; kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish; o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish; davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish; ta’lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta’lim tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish; kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari aozosi bo‘lish, xodimlarining vakillari bo‘lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish; o‘z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish; o‘z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalananish; davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish (davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari uchun); ta’lim oluvchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar qonun hujjaligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatları bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqilanadi.

Pedagog xodimlarning majburiyatları (Qonunning 5-bobi, 46-modda). Pedagog xodimlar quyidagi majburiyatlar uchun masoudirlar:

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining shaoni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi; o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta’lim oluvchilarining psixologik

va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga eotibor qaratishi; voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi; ta’lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi; o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab to‘rgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi; tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonun hujjatlariga, shuningdek ta’lim oluvchi va ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi. Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta’lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Ta’lim ishtirokchilarining boshqa tartibining xuquq va majburiyatları

Mamalakatimiz ta’lim islohatlarida ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatları “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 6-bobida belgilab berilgan. Ta’lim oluvchilarning huquqlari (Qonunning 6-bobi, 47-moddasi) quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olish; yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga qabul qilinish; ta’lim olish shakllarini erkin tanlash; davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq sifatli ta’lim olish; ta’lim olish uchun o‘zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish; davlat ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta’lim va oliv ta’limning davlat ta’lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o‘zi oladigan ta’limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish; pedagog xodimlar va ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog‘lig‘iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo‘ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalanish; ta’lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta’tillar olish; akademik ta’tillar va stipendiyalar olish, o‘qishni tiklash va o‘qishini boshqa ta’lim tashkilotlariga, bir ta’lim shaklidan, kasbdan, ta’lim yo‘nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko‘chirish; ta’lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish; ta’lim olish jarayonida ta’lim tashkilotining o‘quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy oboektlari xizmatlaridan bepul foydalanish; ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish. Ta’lim oluvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarni ta’lim olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Ta’lim oluvchilarning majburiyatları (Qonunning 6-bobi, 48-moddasi) quyidagilardan iborat: o‘quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko‘nikmalarni

o‘zlashtirishi, mashg‘ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko‘rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi; ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo‘ravonlik ishlatmasligi va ularning o‘z majburiyatlarini bajarishiga to‘sinqilik qilmasligi; ustav (ta’sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta’lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi; axloqiy, ma’naviy va jismoniy kamol topishga hamda o‘z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi; ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining shaoni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi; ta’lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart. Ta’lim oluvchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Ta’lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo‘yiladigan talablar (Qonunning 6-bobi, 49-moddasi) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ta’lim oluvchilarning ayrim toifalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan kiyim-bosh bilan ta’milanadi.

Ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarni vaqtincha yashash joylari bilan ta’minlash (Qonunning 6-bobi, 50-moddasi) kunduzgi ta’lim shaklidagi ta’lim tashkilotida ta’lim oluvchilarga, shuningdek sirtqi ta’lim shaklida yakuniy va oraliq attestatsiya davrida vaqtincha yashash joylari, ular mavjud bo‘lgan taqdirda beriladi. Vaqtincha yashash joylari ta’lim oluvchilarga ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan tartibga muvofiq beriladi. Vaqtincha yashash joylariga muhtojlar mavjud bo‘lgan hollarda, ushbu joylardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Vaqtincha yashash joylaridan foydalanish uchun ta’lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq haq to‘lanadi. Vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun to‘lov miqdori ta’lim tashkiloti tomonidan belgilanadi. Davlat ta’lim muassasalari ayrim turdag‘i ta’lim oluvchilar uchun vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun to‘lov qiymatini kamaytirishga yoki ularni to‘lovdan to‘liq ozod qilishga haqli. Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan ma’rum bo‘lgan bolalar, shuningdek o‘qitish davrida yetim bo‘lib qolgan bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun haq to‘lashdan ozod qilinadi. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatları (Qonunning 6-bobi, 51-moddasi) quyidagilardan iborat. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o‘qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishi uchun masouldir. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ta’lim tashkilotlari voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlashda, shuningdek individual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga hamda boshqa qonuniy vakillariga ko‘maklashadi. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarga, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga oilada ta’lim olish imkoniyatini berish; oilada ta’lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda

uning o‘qishini ta’limning har qanday bosqichida ta’lim tashkilotida davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilish; ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta’lim tashkilotlariga xayriya yordami ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritish; ta’lim tashkilotining ustavi va (yoki) boshqa ta’sis hujjati, litsenziysi, davlat akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi sertifikati, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari bilan tanishish; ta’limning mazmuni, qo‘llanilayotgan ta’lim va tarbiya usullari, ta’lim texnologiyalari bilan, shuningdek o‘z bolalarining o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi natijalari bilan tanishish; ta’lim oluvchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; ta’lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarining ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarining ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari:

o‘z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnasevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi; bolalarining umumiyo‘rtta, o‘rtta maxsus ta’lim yoki boshlang‘ich professional ta’lim olishini ta’minalashi; bolalarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishini ta’minalash va o‘zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish; o‘z bolalarining intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi; ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi; jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o‘z bolalarining ta’lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi; ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining shaoni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarining ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish qonun hujjatlari bildan tartibga solingan (Qonunning 7-bobi). Ta’lim oluvchilarini ijtimoiy himoya qilish (Qonunning 7-bobi, 52-moddasi) ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar, stipendiyalar va vaqtincha yashash joylari bilan ta’minalandi. To‘lov-shartnomaga asosida ta’lim oluvchilarga imtiyozli bank kreditlari berilishi mumkin. Nodavlat ta’lim tashkilotlari ta’lim oluvchilarini ijtimoiy himoya qilishni qonun hujjatlariga, o‘z ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatiga muvofiq amalga oshiradi. Davlat ijtimoiy himoya qilishni ta’minalash maqsadida kam ta’minalangan oilalardagi bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun, shuningdek mazkur toifadagi ta’lim oluvchilarining kasbiy o‘sishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ta’lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish (Qonunning 7-bobi, 53-moddasi) davlat tomonidan kafolatlanadi. Ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga qisqartirilgan ish vaqt davomiyligi belgilanadi, haq to‘lanadigan har yilgi uzaytirilgan ta’til va boshqa imtiyozlar va kafolatlar taqdim etiladi. Ta’lim tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-

gigienaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sog‘liqni saqlash kafolatlanadi. Ta’lim tashkilotlari mehnatga haq to‘lash uchun mavjud bo‘lgan mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda ish haqiga, lavozim maoshlariga tabaqalashtirilgan ustamalar belgilashga va mehnatga haq to‘lash hamda uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga haqli.

“Pedagogika” atamasi haqida ko‘pgina manbalarda ma’lumot berilgan. Pedagogika - qadimgi yunon tilidan kirib kelgan bo‘lib, bola yetaklovchi mazmunini bildiradi. Eramizdan olding III-I asrlarda qadimgi Yunonistonda qudlorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayr qildiradigan, maktabga olib boradigan va qaytarib eson-omon olib keladigan tarbiyachi - qullar “pedagog”lar deb atalgan.

Kishilik jamiyatida ta’lim va tarbiyaning roli va o‘rni tobora oshib borgani sari odamlar ongida bu tushunchaga bo‘lgan ehtiyoj va talab kun sayin oshib bordi. Natijada bu atama xususida odamlarning qarashlari ijobiy tomonga o‘zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko‘rgan va ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanadigan shaxslar “pedagog” deb atala boshladi. Ko‘p vaqtlar mobaynida pedagogika fan sifatida faqat o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o‘rganadi, deb qarab kelindi. Ammo hayot amaliyoti tarbiyaning umumiyligi prinsiplari faqat bolalar tarbiyasiga emas, balki katta yoshdagilar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikaga yosh avlod va katta yoshdagilari odamlarga ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida qaraldi. Bu ayni haqiqat.

Bugungi kunda kelib, pedagogika alohida fan sifatida taraqqiy etgan bo‘lib, o‘zining bir necha mustaqil tarmoqlariga ega bo‘ladi. Jumladan, maktabgacha

tarbiya pedagogikasi, umumiy ta’lim pedagogikasi, oliy ta’lim pedagogikasi, pedagogika tarixi, kasb pedagogikasi, maxsus pedagogika - defektologiya (surdopedagogika - kar va soqov bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, tiflopedagogika - ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitish, oligofrenopedagogika - aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, logopediya - nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni o‘qitish), Musiqa pedagogikasi - musiqa sohasi pedagoglarini o‘qitish va kasbiy qayta tayyorlash tayyorlash va boshqalar.

Hozirgi kunda "Musiqa pedagogikasi" fanning alohida tarmog‘i sifatida boshqa fanlar bilan hamkorlikda taraqqiy etib kelmoqda. Musiqa pedagogikasi o‘sib kelayotgan yoshlarga va musiqa ta’limi sohasi mutaxassislariga, katta va kichik guruhli ansambllarga yuksak ma’naviy, axloqiy va estetik xislatlarni, musiqa ijrochilik mahoratini shakllantirish, aqliy va ijodkorlik iqtidor kuchlarini rivojlantirish, m’naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida taraqqiy etib kelmoqda.

Musiqa pedagogikasining ob’ekti - musiqa sohasida malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonidan iborat. Uning predmeti (mazmuni) sifatida yosh avlodni jismonan sog‘lom va baqquvat, ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi jarayonining pedagogik qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Boshqa fanlari qatri musiqa pedagogikasi fanining ham o‘ziga xos asosiy tushunchalari mavjud bo‘lib, ular musiqa pedagogikasi tili nuqtai nazaridan quyidagilar hisoblanadi;

Ta’lim - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o‘quvchi yoshlarni musiqiy qobiliyatini shakllantirish, o‘stirish, rivojlantirish va ruhan, ma’naviy va ma’rifiy xislatlarini tarbiyalash uchun, kelajakda malakali mutaxassis kadr sifatida zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan maqsadli va belgilangan tizim asosida qurollantirish jarayonidir.

Tarbiya - ilmiy dunyoqarash, ma’naviy-ma’rifiy tushunchalar, ahloqiy munosabatlar, jismoniy va kasbiy xislatlar, borliqqa estetik munosabat, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, musiqa tinglash, musiqa savodi, biror bir cholg‘u asbobda ijrochilik mahoratini oshirish maqsadida o‘quvchi yoshlarning ongi, ruhiyati, irodasiga maqsadli, belgilangan tizim asosida to‘g‘ri pedagogik ta’sir ko‘rsatishdir.

Ma’lumot - ta’lim-tarbiya natijasida egallangan va tizimga solingan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda yuksak saviyada shakllangan dunyoqarashlar majmui bo‘lib, musiqa ta’limi asosida yuksak ijrochilik (kuylash, cholg‘u asbobda chalish) mahoratini egallahdir.

Rivojlanish - o‘quvchi yoshlarning aqliy va musiqiy ijodkorlik imkoniyatlarining bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar xususiyatlari va musiqa xizmat sharoitlariga muvofiq maqsadli takomillashuvi jarayonidir.

Ruhiy tayyorgarlik – musiqa ijrochisi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishish yo‘lida o‘z kuchini, irodasini, jasoratini, tafakurini tayyorlashi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘lida turli sharoitlarda belgilangan vazifalarni ado etish uchun o‘zining doimiy ichki tayyorligi va yuksak hissiy-irodaviy turg‘unligini ta’minlash bo‘yicha maqsadli ravishda unda ruhiy xislatlarni shakllantirish jarayonidir.

Mustaqil tarbiya – o‘quvchi yoshlarning musiqiy ijrochilik tayyorgarligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli ado etishi uchun zarur bo‘lgan xislatlarni o‘zida shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan maqsadli, ongli mustaqil faoliyatidir. Yoki boshqacha qilib aytganda mustaqil ta’lim bo‘lajak mutaxassis kadrlarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari, chuqurlashtirishlari va takomillashtirishlari yuzasidan maqsadli mustaqil ishi yoki ta’lim olishidir.

Bilim - borliq, voqeа va hodisalar, musiqiy ijodkorlik va ijrochilik qobiliyatlari, ularning o‘zaro aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo‘lishidir.

Ko‘nikma - ish-harakatlarning puxta egallaganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishidir.

Malaka - ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarning o‘z vazifalarini yuksak tarzda bajarishi hamda ularning egallagan bilim va ko‘nikmalaridan, ish tajribalaridan samarali foydalanishda, shuningdek, yangi va turli sharoitlarda to‘g‘ri va oqilona qo‘llay olishidir.

Bugungi kunda musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash va o‘quvchi yoshlar va tarbiyachilanuvchilarning musiqiy-pedagogik bilimlari darajasiga qo‘yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida Musiqa pedagogikasi fanining vazifalar doirasini kengayishiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, Musiqa pedagogikasi fani o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- musiqa pedagogikasi jarayonining mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini, uning tarkibiy qismlari bo‘lmish ta’lim, tarbiya, ruhiy ijodkorlik, ijrochilik mahorati, mustaqil ijrochilik mahoratini oshirish, mustaqil ta’lim olish jarayonlarini o‘rganish;

- jamiyatda va ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asosida musiqa faoliyatini rivojlanishi va takomillashuvi, shuningdek, ularning ijtimoiy bo‘g‘inning barcha jabhalariga kirib borish ta’lim va tarbiya prinsiplarini aniqlash;

- musiqa pedagogikasining shakllarini tarkib toptirish, metodlarini rivojlantrib, zamon talablari asosida takomillashtirish;

- turli toifadagi musiqa ijrochilari bilan har xil sharoitlarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta'lim va tarbiya prinsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish;

- musiqa janrlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;

- ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish, rivolantirish, musiqa ijrochisi va uning musiqa jamoalari orasida ta'lim va tarbiya darajasini aniqlash, tekshirish hamda baholashning samarali yo'llarini tadqiq qilish;

- musiqa pedagogik jarayonning rivojini ta'minlovchi uslubiy ta'minotni yaratish va uni davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish;

- didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida o'quvchi yoshlarning bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan musiqa ijrochi jamoalarning yuksak professional ijrochilik darajasiga ega bo'lish yo'llarini, usullarini, vositalarini izlash hamda amaliyotda qo'llash;

- musiqa ijrochilarining o'ziga xos xususiyatlarini, mahoratini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonida ularni hisobga olish;

- musiqa ijrochilarining musiqiy mahorat intizomini va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishish yo'llarini o'rgatishni izlab topish;

- mohir musiqa ijrochilari va musiqa jamoalar o'rtasida musobaqa tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash;

- musiqa ijrochilarini jamoaviy birlikda jipslashtirish, unda intizom talablariga xos o'zaro munosabatlarni, sog'lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o'rganish va uni amaliyotda qo'llay olish;

Musiqa ijodiyotida ijrochilarni tarbiyalashda ularga rahbarlik, o'qituvchilik va ustozlik qilish faoliyatidan kelib chiqib, musiqa pedagogikasi fani uchun quyidagi asosiy vazifalar ham muhim o'rinni egallaydi:

- musiqa-pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilarning o'rnini aniqlash;

- o'quvchi-yoshlarda pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llarini izlab topish hamda ularga ta'lim va tarbiya berish mazmuni va uslublarini tushuntirish;

- ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, musiqa-pedagogiksi bo'yicha tadqiqotlar olib borish uslublarini ishlab chiqish.

Ta'limninig ko'rgazmali metodlarini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: **Tasvirlash** (ilyustratsiya), ekskurciya va namoyish qilish metodlari, illyustraciya metodi, o'quvchilarga ilyustratsiya qo'llanmalar - plakat, xarita, doskadagi rasm, kartina, olimlarning portretlari va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish kilish metodi odatda asboblar, tajribalar, texnik ko'rilmalar, turli

tipdagi preparatlarni namoyish qilish metodiga shuningdek, kinofilm va diafilmlar ko'rsalishni ham kiritishadi. Ko'rgazmali vositalarning illyustrativ va namoyish qilish bo'linmalari o'qitish amaliyotida tarixiy shakllangan.

Ta'limning amaliy metodlari o'quv faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini kamrab oladi: amaliy metodlaridan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifani qo'yish, uni bajarilishni rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, jadal rag'batlantirish, tartibga solish va nazorat, amaliy ish natijasini tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga tulik erishish uchun ta'limga tuzatish kiritib borish.

Ta'limning muammoli - qidiruv metodlari amalda ta'limning so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy metodlari yordamida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini mukammal bayon qilish metodlari, muammoli va evrestik suhbatlar, muammoli kidirish tipidagi ko'rgazmali metodlarni qo'llash, muammoli qidiruv amaliy ishlarni o'tkazish yoki xatto tadqiqot tipidagi ishlar to'g'risida gapirish mumkin. O'quv materialini muammoli va muammoli tuzilgan ma'ruza metodlari orqali bayon qilish o'qituvchining bayon davomida mulohaza yuritish, isbotlashi, umumlashtirishini, faktlarni tahlil qilish va tinglovchi fikrini o'z ortidan ergashtirishi, uni faolroq va ijodiyrok qilishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lim metodlaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbat hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro bog'langan savollarni qo'yadi. O'quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarini aytadilar. Aytganlarining to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Bu bilan birga yangi bilimni o'zlashtirishda mustaqil ravishda o'zlarining oldinga siljishini amalga oshiradilar.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, doimo dinamik tarzda o'zgarib boradi. Ta'lim davomida ta'lim olayotganlarning Shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Amaliy metodlar: Amaliy metodlar vositasida vokal - xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlili, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalish harakatlarini bajarishlar, qo'shiq kuylash jarayonida ifoda etiladi.

O'yin metodi: o'yin metodi asosan boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. O'yin metodi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini, nutqini, xotirasini, qiziqishini psixologik-fziologik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Taqqoslash metodi: Bu metod musiqiy fanlarning barochasida uchraydi, ayniqsa, xonandalik mahoratini, cholg'u ijrochiligi va musiqa asarlarining tahlil va

janrlarni belgilash (qo'shiq, raqs, cholg'u ijrochiligi), musiqa tinglash jarayonida keng qo'llaniladi.

Musiqiylar o'quvi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodi: Musiqiy o'quvi past bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differensional guruhlarga bo'lib va darsdan tashqari vaqt ajratib, yakka tarzda ish olib boriladi. Darsdan tashqari jarayonida alohida qo'shiqlarni o'rganib, topshiriqlar beriladi.

Davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan uzlusiz ta'limning maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim tizimidada o'qitish jarayonini jahondagi rivojlangan buyuk davlatlardagidek, har tomonlama jaxon talablariga javob beradigan tarzda darslarni tashkil qilish va har bir darsda ta'limning optimal usullarini qo'llashga erishish borasida ta'limda tub islohotlar amalga oshirildi. Musiqa tarbiyaci vazifalarini amalga oshirish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini bir butun tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, o'qitish jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham ma'lum bir funksiyani bajaradi. **Optimal (xususiy) metodlar** o'qitish faoliyati va maqsadga qarab to'rtga bo'linadi:

- 1.Darsning musiqiyligini umumlashtiruvchi metod.
 - 2.Dars mashg'ulotlarini uzviyligi, takrorlash va mustaqil ta'lim metodi.
 - 3.Dars mazmunini emotsiyal dramaturgiyaci metodi
 - 4.Darsning pedagogik jihatdan ko'zatilishi va bilimlarni baholash metodi.
- O'qituvchidan o'qitishning optimal usullarini tanlash va o'quvchilar faolligini oshirish uchun quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

1.Musiqa o'qitish metodikasining umumiy maqsadi hamda har bir darsning aniq maqsad va vazifalarini belgilash. Yosh avlodning milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatni inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. O'zbek Musiqa qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, insoniy fazilatlari, badiiy milliy ma'naviyati istiqlol va mustaqillik uchun kurashi hamda orzu-umidlari bayon etiladi. Bu buyuk manaviyatimiz barkamol yosh avlodning madaniyati va milliy tafakkurini shakllantirishda benazir vositadir. O'qituvchining darsi ma'lum maqsadlarga qaratiladi. Darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini to'g'ri belgilash o'quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim sharti sanaladi. Chunki, darsning maqsadidan o'quvchilar oldiga qo'yiladigan maqsad ham kelib chiqadi:

- ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishning yaona bir muhim omili
- dars tuzilmasini to'g'ri belgilashdir. Ko'p xollarda baozi o'qituvchilar darsning tuzilmasini to'g'ri belgilay olmaganliklari sababli turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin;

- o'quv materialining tavsifi, o'quvchilarning yosh xususiyati va sinfning real o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'limning eng ma'qul metodi tanlanadi.

Bunda o‘quvchilardan mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari talab etiladi;

- o‘qitish ishida ta’limning yakka (individual), gruhli va jamoa shakllarini qo‘sib olib borish, o‘quvchilarga differensial munosabatda bo‘lishning ahamiyati katta. Dars jarayonida biz ta’limning ana shu shakllaridan unumli foydalanish, chunki, ta’limning ana shu shakllarini birga qo‘sib olib borish orqali o‘quvchilar faoliyatini faollashtirishga erishiladi. Yakka (ndividual) tartibda ish shaklida har bir o‘quvchida mustaqil fikrlash, qo‘yilgan muammoni mustaqil hal qilish talab etiladi;

- muammoli o‘qitishni tashkil qilish. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan muammoni ijodiy isbot qilishga harakat qilish;

- dasturlashtirilgan o‘qitish, yaoni, o‘quvchilar qobiliyatiga qarab har bir o‘quvchi uchun ma’lum dastur – vazifa tuzish, bularni asta-sekinlik bilan chuqurlashtirib, mustahkamlab borish. Nazariy masalalarni kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshirish. Shunday qilib, musiqa mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, darsning maqsadi va tuzilmasini to‘g‘ri belgilash, diqqat va eotiborni o‘quv materiallarining asosiy qirralariga qaratish, tema xarakteriga muvofiq keladigan ta’lim metodi va metodik usullarni tanlash, o‘qitishning yakka, guruhli va jamoaviy shakllarini birga qushib olib borish, differensial ta’lim imkoniyatlaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Darsda ta’limning ana shu vositalariga amal qilish orqali o‘quvchilarning musiqada yuqori o‘zlashtirishga erishib kelinmoqda.

Agar ta’lim jarayoni o‘quvchida faol harakat, bilim va ko‘nikmalar orttirish ishtiyoqini uyg‘osagina samarali kechadi va sifatlari natijalar beradi. O‘quv faoliyati bunday tashkil qilish uchun uning barcha usullari – og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy, reproduktiv, qidiruv, induktiv hamda didiktiv, shuningdek, mustaqil ish usullaridan foydalaniladi. Ta’lim jarayonida rag‘batlantirishning asoslash vazifasini o‘taydigan bu usulni shartli ravishda ikki guruhga, o‘quvchilarning bilish ishtiyoqini uyg‘otuvchi hamda ta’limda burch va ma’suliyat tuyg‘usini shakllantiruvchi usullardan iborat guruhga ajratish mumkin. Bu jarayonda o‘quv faoliyati, uning mazmuni, shaklli va amalga oshirish usullariga munosabatda ijobiy usullariga munosabatda ijobiy xissiyotning yuzaga kelishini ta’minalash muhimdir. Hissiy holat, doimo ruhiy to‘lqin iztirobi bilan hozirjavoblik, hamdardlik, quvonch, gazab, xayratlanish o‘zaro bog‘liqdir. Shuning uchun ham diqqat, eslab qolish, anglash jarayonlariga bunday holatda o‘quvchining chuqur ichki kechinmalari qo‘shiladiki, bu jarayonni qizgin kechadigan qiladi va maqsadga erishish ma’nosida ancha samarali bo‘ladi. Ta’limni hissiy rag‘batlantirish usullaridan biri, darsda qiziqarli vaziyatni yaratishdir. Bunda gap o‘quv jarayoniga qiziqarli misollarni, tajribalarni, faktlarni kiritish ustida boradi.

O‘quv faoliyatiga qiziqishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish uchun ta’lim prinsiplari qator talabalarga javob berish lozim. Bunda ta’lim mazmunining rag‘batlantiruvchi ta’sirini oshiradigan ayrim maxsus usullari ham mavjuddir. Ularga birinchi navbatda yangilik va dolzarblik vaziyatlarini yaratuvchilik mazmunini, fan hamda texnikaning eng muhim kashfiyotlarini zamonaviy madaniyat, sanoat, adabiyot yutuqlariga, ijtimoiy - siyosiy va xalqaro hayot xodisalariga yaqinlashtirishni kiritish mumkin. Ana shu maqsadda mamlakat jamoatchiligidagi alohida qiziqish uyg‘otayotgan, vaqtli matbuotda eolon qilinayotgan, televidenie va radio orqali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi. Ana shundagina o‘quvchilar darsda o‘rganilayotgan masalalarning muhimligini yorqin va chuqur his qiladilar va shunga asosan unga katta qiziqish bilan yondashadilar.

O‘quvchilarni taqdirlash ular xulqi va o‘quv faoliyatidagi ijobiy jihatlarni qo‘llab – quvvatlash doirasi nihoyatda xilma - xildir. O‘quv jarayonida – bu o‘qituvchining maqtovi, yuqori baho qo‘yish va boshqalardir. Jazolashning tanbeh va boshqa turlari ta’lim asoslarni shakllantirishda istisno etiladi, odatda bu usul faqat ilojsiz vaziyatlardagina qo‘llaniladi. Rag‘batlantirishning usullarini mohirona qo‘llash o‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlashi mumkin.

Ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Shu xususda og‘zaki savol-javob shakli anoanaviy usullardan biri hisoblanadi. Og‘zaki savoldan javob o‘quvchilarni hozirjavoblikka tayyorlaydi, mantiqiy javobni tezda fikran tayyorlab so‘zlarda ifoda qilish ko‘nikmasini hosil qiladi. Og‘zaki savol-javob, yakka – yakka va umumiy so‘rash orqali amalga oshiriladi. Yakka o‘quvchidan so‘ralganida o‘qituvchi o‘quvchiga bir nechta savol beradi. O‘quvchining javoblaridan o‘quv materialining qanchalik o‘zlashtirilganligi ma’lum bo‘ladi. Sinf o‘quvchilaridan so‘ralganida o‘qituvchi o‘zaro mantiqiy bog‘langan qator sinf oldiga qo‘yadi, o‘quvchilarni javob berishda faollikka chaqiradi. Og‘zaki savol-javob o‘quvchilar og‘zaki nutq madaniyatini o‘stiradi. Ularni so‘zamollikka, ravon adabiy so‘zlar ishlatib mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimlarni so‘zlarda ifodalashga o‘rgatadi.

Ko‘p xollarda nazoratning yozma shakli o‘quvchilar ichki sir-asrorlarini, kechinmalarini, yashirinib yotgan isteododlarini ochishimkonini beradi. Bu usul yozma sinovni 15 - 20 minut yoki butun dars davomida o‘tkazilishi mumkin. Keyingi yillarda yozma ishlarning dasturlashtiriladigan shakli o‘quv tarbiya jarayonida keng qo‘llanilayapti. Bunda o‘qituvchi savollar ro‘yxatini tuzadi, ularning har biriga mumkin bo‘lgan javoblarni taklif qiladi, bu javoblarda bittasi to‘laroq bo‘ladi. O‘quvchilarning vazifasi javoblar ichidan nisbatan to‘laroq

va aniqrog‘ini tanlashdir. Shu uslub bilan o‘quvchilarni musiqiy o‘quvini o‘sirishga juda katta yordam beradi.

Musiqa madaniyat darslarida turli metodlarni amalga oshirish usullari, Musiqa madaniyat darslarida ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida musiqa ta’lim mazmunini o‘zlashtirish yo‘llari ifoda etiladi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, birinchidan, musiqa ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, ikknchidan, musiqa ta’lim faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Musiqa madaniyat darslarida o‘qituvchi har bir metodni amalga oshirish uchun ta’lim metodlari tizimi xaqida ma’lumotga ega bo‘lishi shart.

O‘quvchiga musiqa bilimlarni yetkazish shakliga ko‘ra ta’lim metodlari:

1. Og‘zaki bayon qilish metodlari.
2. Ko‘rgazmali metodlar.
3. Amaliy metodlar kabi turlarga ajratiladi.

Musiqa mashg‘ulotlarda ushbu metodlarni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Jumladan: **Ko‘rgazmali o‘qitish metodni qo‘llash yo‘llari**. Ma’lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va ohang tovushlaridan iborat bo‘lgan sanoatdir. Uni faqat eshitish organlari orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko‘rgazmali o‘qitishni esa, nota yozuvlarni, plakatlar, rasmlar, o‘qituvchining so‘zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg‘u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko‘rgazma bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko‘rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko‘rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta’minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik - psixologik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, Shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptori yordamida o‘zlashtiriladi. Demak, o‘zbek xalqi tomonidan ko‘p bora qo‘llaniladigan “Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi” maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Tabiiy oboektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari)ga eotibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan oboektlarning suboekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga nota yozish yoki o‘qituvchining maxsus jihozlar (plakatlar, kompozitorlarni portretlari, asarlarni partituraci va x.k.) yordamida ko‘rsatib berishi hisobiga amalga oshadi.

Ushbu metodni namoyish samarasi ko‘p jihatdan musiqa o‘qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o‘quvchilarning yoshiga mos holda to‘g‘ri tanlanishi hamda

mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo‘naltirishiga bog‘liqdir.

Tasvirlash (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, didaktikada alohida o‘rganiladi.

Namoyish va tasvir metodlari o‘zaro bog‘liqlikda bir - birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi.

Musiqa ta’limida illyustratsiya metodi asosan plakatlar, cholg‘u asboblari, stend, chizmalar, kompozitorlarning suratlari, jadvallar kabilarni ko‘rsatishni o‘z ichiga olsa; namoyish etish metodlariga asl holidagi tabiiy oboektlarni ko‘rsatish, mashg‘ulotlar jarayonida esa texnik namoyish, yaoni zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya tarmoqlari yordamida, kompakt disk elektron kitoblaridagi mavzularni ekranда yoritish, mavzuga oid kino va diafilmlar, audio va videomateriallar kiradi.

Tasvirning samarasi ko‘pincha musiqa o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatuv texnologiyasi qay darajada o‘zlashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o‘rganilayotgan oboekt mohiyatini to‘laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, Musiqa dars jarayonida zarur o‘rinlarda kerakli hajmda ko‘rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o‘quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg‘itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, nota jadvali, asarlar partiturasи, musiqa cholg‘u asboblari va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Amaliy o‘qitish metodni qo‘llash yo‘llari. Amaliy metodlar vositasida o‘quvchilar vokal - xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o‘rganish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishi uchun foydalaniladi.

Amaliy ishlar musiqa sinfda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar musiqa o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnomasi yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar eotiboriga havola etadi.

Amaliy ishlar metodi o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Qayd etilganidek, ushbu metodlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida qo‘sish qaylash, musiqaga mos harakatlarni bajarish, musiqa cholg‘u asbobida chalish hamda har-xil mashqlarni bajarishdagi shaklga ega bo‘ladi. Amaliy metodlar, vokal-xor mahoratlarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Vokal - xor mashqlarni amaliy bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, vokal - xor mashqsiz ko‘nikma hamda bilimlarni shakllantirish mumkin emas.

Vokal – xor mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: musiqa o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi; musiqa o‘qituvchi nazorati ostida o‘quvchilar tomonidan o‘quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko‘nikma va tajribalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi.

Yozma mashqlar – musiqiy ta’limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Solfedjio fanidan diktant yozish, musiqa savodi fanidan masala, misol ishslash, shuningdek, bir mavzuga referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Ayrim holatlarda o‘quvchilar ovoz chiqarib o‘quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo‘ladi. Masalan, musiqaga mos xarakatlarni bajarish hamda jamoa bo‘lib kuylash faoliatlarda qo‘sinqni o‘rganishda yoki qo‘sinqqa mos xarakatlarni quyishda. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko‘nikma va malakalarni egallahsga imkon beradi.

Musiqa o‘qitishda og‘zaki metodni qo‘llash yo‘llari. Musiqa darsida o‘qituvchining so‘z mahoratiga alohida talab qo‘yiladi. Musiqa o‘qituvchi o‘zining asar haqidagi badiiy kirish so‘zi bilan o‘quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli hikoya yoki suhbat yo‘li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi.

Hikoya yordamida o‘qituvchi musiqa asari haqida jonli, emotsiyal yorqin bayoni berishi mumkin. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo‘lib, uning maqsadi o‘quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o‘rgatish. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan musiqa materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. Musiqa o‘qituvchi har bir Musiqa darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga eotiborni qaratadi. Hikoya qisqa bo‘lishi hamda o‘quvchilarda his - hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg‘otishi kerak.

Suhbat orqali musiqa o‘qituvchi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularni nutqini o‘siradi, fikriy faoliyatni kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi.

Suhbat musiqa ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiyici o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Cuhbat musiqa o‘qituvchi

fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan musiqa o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. Musiqa o‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharplashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiylashtiriladi.

Tushuntirish – metodi asosan, musiqa savodi va musiqa tinglash faoliyatlarida kup qo‘llaniladi. Musiqa o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida musiqa o‘quv materialining bir qadar qiyin o‘rinlariga alohida urg‘u berilib, mazmuni ochib beriladi. Tushuntirish samarasini ko‘p hollarda musiqa o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quvchi-yoshlarlar musiqani turlicha tushunadilar. Masalan, biror bir kuyni tinglab, uni nomini bilmay turib, turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlari tabiat manzarasiga, boshqalari qushni kuylashini, qolganlari esa boshqacha xarakter his etib aytadilar. Yana boshqalarida esa yaxshi kayfiyat tug‘iladi. Shuning uchun musiqa o‘qituvchisi bolalarga asarni tushuntirib beradi. O‘quvchilar diqqatini musiqaning ifoda vositalariga qaratadi. Ular kuylovchi qush obrazini yaratadilar. Bu musiqa bilan ta’sir qilish metodidir. O‘quvchilarning musiqaga qiziqish, musiqa tinglashda taqqoslashga o‘rganish, kuylashda, raqsda, turli cholg‘ular ijrosida o‘rgatiladi. Musiqa o‘qituvchi ushbu faoliyatlarni ketma - ket olib borganda aniq maqsadga erishiladi.

O‘yin metodni qo‘llash yo‘llari. Musiqa o‘qituvchi ushbu metoddan ko‘proq boshlang‘ich sinflarda foydalanishi ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo‘llanma va darsliklarda o‘yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Darsda qo‘llaniladigan musiqali o‘yinlar o‘quvchilarning musiqiy o‘quvini o‘siradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish uyg‘otadi.

Hozirgi vaqtda musiqa o‘qituvchilar qo‘lida barcha musiqa fani bo‘yicha didaktik o‘yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha

yaratilgan o‘quv dasturlarda turli didaktik o‘yinlarning ro‘yxati yetarli darajada ko‘rsatilgan.

Musiqa ta’limning globallashuvi ta’limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo‘nalishi jihatidan xilma - xil bo‘lgan kompyuter texnologiya dasturlaridan maktab amaliyotida jadal kirib kelishi, o‘qitish texnologiyalarni qo‘llanilish jarayoni ta’minlamoqda. Musiqiy didaktik o‘yinlar o‘quvchilarga ijtimoiy - foydali mehnat hamda o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Musiqiy didaktik o‘yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O‘yinlar o‘quvchiyoshlarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo‘riqishlarini kamaytiradi. Musiqa didaktik o‘yinlardan foydalananilganda o‘quvchilarning manfaatdor bo‘lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o‘yin ijobiy natija bermaydi.

Taqqoslash metodni qo‘llash yo‘llari. Musiqa darsi jarayonida kontrast, yaoni taqqoslash metodi keng qo‘llaniladi. U musiqiy ta’lim jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchilar bilan audio va vidno yozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili va janrlarni belgilashda keng qo‘llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarni templari, turli cholq‘u asboblaridagi ijrolar farqini aniqlashda foydalananiladi.

Musiqa pedagogika fanida musiqa o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv - tarbiya jarayoni kechayotgan shart – sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim: zamonaviy didaktikaning yetakchi g‘oyalari, musiqiy ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiyligi maqsadlari; Musiqa fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi; musiqa fanni metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo‘yiluvchi talablarning o‘zaro aloqadorligi; muayyan musiqa dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni; u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt; o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darjasи; o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darjasи; o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darjasи, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi; o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasи, pedagogik mahorati, Shaxsiy sifatlari; o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatalganligi.

Musiqa o‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma - ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘zini - o‘zii nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

4.O‘quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo‘nalishlari, tiplari, funksiyalari hamda kelgusida rivojlantirish istiqbollari.

Ta’lim – tarbiya jarayoni musiqa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Ta’lim – tarbiya jarayonida – musiqaning ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlarini amalga oshirishda o‘quvchilarning ongi shakllana boradi, histuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod musiqiy tarbiya muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Musiqa tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan musiqa tarbiyaning asosiy maqsadi komil Shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

O‘quvchi shaxs sifatida rivojlantirishda nasl, atrofidagi muhit, tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Musiqa o‘qituvchi bu omillarni kuzatib, o‘rganib chiqib, o‘quvchilarni qiziqishi, qobiliyati, musiqaga, go‘zallikka, mehnatga munosabatlariga qarab, musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarini singdira borishi lozim.

Inson musiqadan umrbod zavq topadi va madad oladi. Shu bois o‘quvchilarga Musiqani tarbiyalash, yuksak did bilan qurollantirish, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish boshlang‘ich sinf musiqa o‘qituvchisini vazifasidir. Musiqa inson ruhiyatiga emotSIONAL ta’sir ko‘rsatish bilan birga, musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy ohanglar bilan ta’sir etadi, bolalarni quvontiradi, o‘ylantiradi, yaxshilikka, go‘zallikka etaklaydi va nafocat olamiga olib keladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati darslariga eotibor yanada kuchayib, boshlang‘ich sinf musiqa o‘qituvchisi oldiga katta vazifalarni qo‘yadi. Shu bilan birga, iqtidorli o‘quvchilarni, maktab hayotiga ommaviy va to‘garak ishlariga jalb etish musiqa o‘qituvchisi zimmasidadir. Musiqa darslarida milliy musiqa meroslaridan to‘laqonli foydalanish va bugungi zamонавији asarlarni musiqa darslarida qo‘llash, musiqa o‘qituvchidan ish mazmunini va uslubini yangilashni talab etadi. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi o‘z fanini puxta bilishi, bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o‘qitish metodikasidan chuqur bilimga ega bo‘lishi lozim. Chunki yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa o‘qituvchisi yetakchi bo‘lib hisoblanadi.

Maktab hayotida boshlang‘ich sinf musiqa o‘qituvchisini faoliyat miqyosi kengdir. Musiqa darslaridan tashqari, o‘quvchilar bilan tarbiyaviy musiqali ochiq darslar o‘tkazadi. Bu hozirda ishlayotgan o‘qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Bunday talablar yangi nashrdan chiqqan qo‘llanmalar, tavsiyanomalar, dasturlar, darsliklar keng ma’noda

mazmunli qilib yoritilgan. Musiqa o‘qituvchisi dars jarayonida qo‘sish qaylash, musiqa tinglash, musiqaga mos bolalar cholg‘u asboblaridan jo‘r bo‘lish musiqiy ritmga harakatlar bajarish kabi dars faoliyatlarida musiqaga qiziqtira olish, ularni musiqiy qobiliyatlarini o‘sirishga harakat qilish lozim. Chunki, musiqa o‘quvchilarga tez ta’sir eta oladigan ta’lim-tarbiya vositasidir. U o‘qituvchilarini Shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ommaviy va ahloqiy tomondan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham, Musiqa darslari, avvalo tarbiya darsi deb ataladi. Dars samaradorligini oshirish musiqa o‘qituvchisidan mehnat, o‘z faniga muhabbat, bolalarni go‘zallik va nafosat olamiga olib kirish uchun bilim, musiqaga mehr va shijoat talab etadi.

Musiqa ta’limi va tarbiyasi vazifalarini hal etishda muqobil metodlardan unumli foydalanish. Musiqa ta’limi va tarbiyasi metodlari musiqa ta’lim-tarbiya maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o‘zlashtirish yo‘llari ifoda etiladi, musiqa o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Musiqa ta’limi va tarbiyasi vazifalarini hal etish metodlarini tanlash va muqobil metodlardan unumli foydalanish quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi: didaktik maqsad asosida; musiqa ta’lim - tarbiya mazmuni asosida; o‘quvchilarning o‘quv ko‘nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida; musiqa o‘qituvchining tajribasi va kasbiy tayyoragarlik darajasi asosida.

Musiqa o‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma - ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘zini - o‘zi nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi. Agar musiqa ta’limi va tarbiyasi vazifalarini hal etishda muqobil metodlardan unumli foydalansa, Shaxsning tafakkurini rivojlantirish hamda his-tuyg‘ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug‘iladi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodga ta’lim berish va tarbiyalash jarayonida quyidagi vazifalar hal etilmoqda:

1. Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z Shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;
2. O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkko‘rga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;
3. Umuminsoniy axloq me’yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr - muhabbat, muruvvat, alodatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o‘quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

4. Vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaclik tuyg‘usini qaror toptirish;

5. Insonni oliv qadriyat sifatida qadrlash, uning shaoni, or - nomusi, qadr - qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar.

Ushbu vazifalarni hal etish uchun, o‘qituvchi metodlarni to‘g‘ri tanlash va muqobil metodlardan unumli foydalanishi zarur.

Tayanch tushunchalar:

Ta’lim metodlari (uslublari), metodika, xususiy metodika, ta’lim (o‘qitish) usullari, tarbi.

Nazorat savollari:

- 1.Ta’lim metodlari to‘g‘risida tushuncha bering.
- 2.Musiqa o‘qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari haqida gapirib bering.
- 3.O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirishning qanday metodlar mavjud?
4. “Metod” - so‘zi nimani anglatadi?
5. Optimal metod nimani anglatadi va uning qanday turlari mavjud?
6. Musiqa o‘qitish metodlarining didaktik asoslari nimalardan iborat?
7. Musiqa madaniyat darslarida qanday metodlardan foydalanish mumkin?.
8. Ta’lim – tarbiya jarayonida musiqaning qanday ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish mumkin?
9. Musiqa ta’limi va tarbiyasi vazifalarini hal etishda qanday muqobil metodlardan unumli foydalanish mumkin?.
10. Og‘zaki metodning qanday afzalliklari bor?
11. Musiqa darslarida yozma metodlardan foydalanish qanday samara beradi?

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan

birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

11.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

12.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

13.Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Silymanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

14.O.S. Frolova. Formirovanie innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povышения kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

15.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

16.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘sishlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorlarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

17.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlari:

18.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

19.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

20.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

21.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.

22.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

4-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARINING ILMIY TADQIQOT MASALALARI REJA

1. Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda o‘quv axborotini qayta ishslash (konstruksiyalash), muammoli savol, Keys-stadi topshiriqlari. O‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi.

2.Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda talabalar mustaqil ta’limini

tashkil etish, oliy musiqa ta’limi metodikasi o‘qitishning didaktik ta’minoti.

3.Oliy musiqa ta’limi metodikasida darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, portfolio, o‘quv kursining elektron-ta’lim resurslarini va sillabusini yaratish texnologiyalari.

1. Oliy musiqa ta’limi metodikasini o‘qitishda o‘quv axborotini qayta ishlash (konstruksiyalash), muammoli savol, Keys-stadi topshiriqlari. O‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi.

AXBOROT (lotincha-tanishtirish, tushintirish, ma’lumot yetkazish)-falsafada qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtida yangi, kengroq ma’no kasb etgan markaziy kategoriylar sifatida maydonga chiqqan tushuncha. Axborot tushunchasi barcha fanlar uchun umumiyl bo‘lib qoladi. G‘oyalar ma’lumotlar yig‘indisi va matematik vositalar (kompyuter, video, auditexnologiyalar) kompleksini o‘z ichiga olgan. Axborotga yondashuv esa, umumilmiy tadqiqot vositasiga aylandi. Ma’lumot ma’nosidagi axborotning dastlabki taraqqiyoti munosabati bilan ehtimol metodlaridan foydalanishning kengayishiga qarab axborotlar soni o‘sib bordi. Keynchalik axborot matematik nazariyasining boshqa variantlari-tipologik, kombinatorlik va h.k. sentaktik nazariya degan umumiyl nom oldi. Axborotning mazmuni va aksiologik tomonlari semantik va pragmatik qarashlar doirasida tadqiq qilinadi. Hozirgi zamon fanida axborot tushunchasining taraqqiyoti turlituman dunyoqarashlar, falsafiy tushuntirishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘tgan asr oxirida axborot vositalarining nihoyatda tez ko‘payishi bu asrni axborot asri deb atalishiga sabab bo‘ldi (televiedeniya, internet, gazeta, radio, jurnallar, ilmiy maqola, dissertatsiya va boshq.)

Q/A – masofaviy ta'lim platformasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

Review – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish.

SWOT – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlilqiladi;

Interview – muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyuştirish va uni masofaviy ta'lim platformasiga yuklash;

Google Apps – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaylar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;

Dayjest – berilgan mavzu bo'yicha internet-havolalar to'plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash;

Report – talabalar laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobotlarini masofaviy ta’lim platformasiga kiritishadi.

O‘RTMI lar ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o‘tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko‘rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo‘yicha keltiriladi.

TMI mazmuni fanning xususiyatidan, oliy o‘quv yurtining texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o‘quv-uslubiy ta’minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi.

TMI innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak. O‘RTMI ning auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko‘zda tutadi. O‘RTMI har bir fan bo‘yicha butun akademik o‘qish davrida sana, vaqt, auditoriyasi va tyutorlarni ko‘rsatgan holda grafik bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘RTMI doirasidagi mashg‘ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo‘lishi mumkin, ularning nisbati o‘rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o‘rganishga ajratilgan audtoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik darajasi bilananiqlanadi.

Yakka tartibda maslahat olgan talaba, o‘qituvchilarning mehnatini hisobga olish bo‘yicha jurnalga imzo qo‘yadi. TMI ning sifatini kafedra nazorat qiladi, bunda TMI ning hajmi, mazmuni va hisobot turini tasdiqlaydi, ish hajmini, ketma-ketligini va topshirish muddatlarini aniqlaydi, TMI natijalari bo‘yicha talabalar va o‘qituvchilarning hisobotlarini ko‘rib chiqadi.

Talabalarning bilimini nazorat qilishni tashkil etish

Talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash amalda joriy qilingan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9-avgustdagagi 19-2018-sonli buyrug‘iga ilova qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish baholash tizimi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Unga muvofiq oraliq nazoratda fan bo‘yicha A-S darajasiga erishgan talabalar yakuniy nazoratga qo‘yiladi.

Talabaning oraliq nazorat bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari quyidagi jadval asosida kredit ballariga va harfli tizimga o‘giriladi.

1-jadval

Harfli tizimdagi baho	allarningraqamli ekvivalenti	Foiz ko‘rsatkichi	An’anaviy usuldagি baho
A	4,0	95-100	A’lo
A-	3,67	90-94	
V+	3,33	85-89	
V	3,0	80-84	Yaxshi
V-	2,67	75-79	
S+	2,33	70-74	

S	2,0	65-69	Qoniqarli
S-	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	Qoniqarsiz
D	1,0	50-54	
F	0	0-49	

Oraliq nazoratlar – bu tyutor tomonidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari va ular bo‘yicha mustaqil ta’lim natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan talabalarining bilimlarni tekshirish va baholash jarayonlaridir. Oraliq nazorat baholari tyutor tomonidan talabalarining auditoriyadagi faolligi va O‘RTMI shakllari (*Office Hours*) bo‘yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Fanni o‘rganishda talabalar bilimni tekshirish bo‘yicha turli shakldagi joriy nazoratlar ko‘zda tutilishi mumkin:

1) og‘zaki so‘rov – bu nazorat turi fanning bir yoki bir nechta bo‘limini o‘rganib bo‘linganidan so‘ng savol-javob va masalalarining muhokamasi tarzida o‘tkaziladi;

2) yozma ish – fanning alohida bo‘limlari bo‘yicha qo‘yilgan masalalarni muhokama qilish, muammolarni tahlil qilish, amaliy topshiriqlarni bajarish bo‘yicha ko‘zda tutadigan nazorat turi;

3) kombinirlangan so‘rov – bir vaqtning o‘zida ham og‘zaki, ham yozma shakldagi nazorat turlarining o‘tkazilishi;

4) uy ishlarini himoya qilish va taqdimot qilish – yakka tartibda va guruhli uy ishlarining to‘g‘ri bajarilganligini, talabaning o‘tilgan materialni umumlashtirish va uni auditoriyaga taqdim qilish, fan mavzulari bo‘yicha mantiqiy bog‘liqlikni kuzatish ko‘nikmalariga erishganligini tekshirish maqsadida nazorat qilish;

5) bahs-munozaralar, treninglar, dumaloq stollar, keys-stadi va h.k. – muammoli xarakterdagи mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini namoyish qiluvchi masalalarni guruh bo‘lib muhokama qilish;

6) testlar – fanning alohida bo‘limlari bo‘yicha savol topshirig‘i ko‘rinishidagi yozma nazorat shakli;

7) kurs loyihasini, kurs ishini bajarish – nazariy materialni amaliy masalalarni yechish hisobiga sifatli o‘zlashtirish maqsadida namunaviy va ishchi o‘quv rejalgarda muvofiq ravishda ko‘zda tutiladi, o‘quv semestri davomida bajariladi. Kurs loyihasining (kurs ishining) himoyasi kafedra mudiri farmoyishi bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan kurs loyihasi (ishi) bo‘yicha ilmiy rahbar ishtirokida kafedra mudiri belgilangan jadval asosida qabul qilinadi. Kurs loyihasini (kurs ishini) bajarmagan talabalar oraliq attestatsiyalarga kiritilmaydi. Muayyan bir fandan kurs loyihasini (ishi) himoya qilmagan talabaga registator ruxsati bilan boshqa fanlardan imtihonda qatnashishiga ruxsat beriladi.

Talabalarining bilimlarini oraliq nazorat qilish tyutor tomonidan tasdiqlangan jadval asosida semestrning o‘rtasidagi va oxiridagi haftalarda amalga oshiriladi. Joriy va oraliq nazoratlar dekanatlar va o‘quv bo‘limi tomonidan tashkil qilinadi. Baholar har bir fan bo‘yicha alohida foiz hisobida qo‘yiladi.

Oraliq nazorat natijalari “O‘qituvchining ishini hisobga olish jurnali” va imtihon sessiyasigacha RO ga topshiriladigan “Reyting qaydnomalari” da qayd qilinadi.

Reyting nazoratlaridan keyingi 3 kun mobaynida talabalar apellyatsiya huquqiga ega. Appelyatsiyaga ariza shaxsan talaba tomonidan dekan nomiga topshiriladi va kafedraning fan bo‘yicha appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Birinchi va ikkinchi oraliq nazorat natijalari bo‘yicha 50% dan kam (R_{o-r} = $(R_1 + R_2) / 2 < 60\%$) natija ko‘rsatgan, shuningdek, ularda uzrli sabab bilan ishtirok etmagan talabalar imtihon sessiyasi o‘tkazilgunga qadar (istisno tariqasida o‘quv ishlari prorektorining ruxsati bilan fan bo‘yicha imtihongacha) oraliq nazoratni yakka tartibda topshirishlari mumkin.

Sirtqi ta’lim talabalari uchun oraliq nazorat bir marta imtihon sessisiyasi davrida fan bo‘yicha imtixongacha o‘tkaziladi.

Kunduzgi ta’limda yakuniy nazoratga (imtihon sessiyasiga) ikki hafta ajratiladi. Dars jadvallari RO tomonidan tuziladi. Talabalarga kompleks imtihonlarga tayyorlanish uchun kamida 3 kun ajratiladi.

Barcha fanlar bo‘yicha yakuniy nazorat - imtihonlar o‘tkaziladi. Imtihon yozma, og‘zaki, kompyuterda test va boshqa zamonaviy, shaffof va adolatli shakllarida (portfolio, ijodiy ish, antiplagiat, taqdimot va h.k.) tashkil etilishi mumkin. Talabalarga imtihon topshirish uchun imtihon tilini (o‘zbek, rus yoki ingliz) tanlash imkonи beriladi. Mantiqiy bog‘liq bo‘lgan 2-3 fandan kompleks imtihonlar o‘tkazilishi mumkin.

O‘qituvchilar imtihonga test topshiriqlari, yozma va og‘zaki imtihon uchun savollarni tayyorlab qo‘yishlari lozim bo‘ladi.

Yozma yoki og‘zaki imtihonlar uchun variantlar soni akademik guruhdagi talabalar soniga qarab shakllantiriladi, bunda har bir variantda 3 ta nazariy savol yoki 2 ta nazariy savol va bitta masala yoki 1 ta nazariy savol va2 ta masala bo‘lishi mumkin.

Imtihon qaydnomalari imtihon sessiyasi boshida RO tomonidan talabalarga ruxsat berilishini qayd qilish va komissiyaga topshirish uchun dekanatlarga taqdim etiladi.

Kompyuterda test o‘tkazishda vaqtidan unumli foydalanish maqsadida imtihon topshiruvchiga har bir fandan 20 ta savol taqdim etilishi tavsiya etiladi. Test o‘tkazish jarayonida RO vakili ishtirok etadi. Zarurat bo‘lganda fan o‘qituvchisi taklif etilishi mumkin.

Yozma yoki og‘zaki imtihon har bir fan bo‘yicha alohida biletlar tuzilgan biletlar yordamida o‘tkazilishi mumkin. Yozma imtihonning umumiyligi vaqtin 3 soatdan oshmasligi zarur.

Imtihonni tashkil qilish va o‘tkazish mas’uliyati RO vakiliga yuklatiladi. Yozma imtihon to‘gashi bilan RO vakili javoblarni shifrlaydi va komissiyaga tekshirish uchun taqdim etadi. Yozma ishlarni tekshirish imtihon o‘tkazilgan kunda yakunlanishi shart (agar 2 tadan ortiq guruhdan imtihon olingan bo‘lsa, keyingi kunga ham o‘tkazish mumkin). Imtihon natijalari “Apellyatsiyasiz imtihon

qaydnomasi” ga qayd qilinadi va fan o‘qituvchisi tomonidan talabalar e’tiboriga yetkaziladi. “Apellyatsiyasiz imtihon qaydnomasi” RO ga taqdim qilinadi.

Yozma, og‘zaki yoki kompyuterdagи test natijalari bo‘yicha apellyatsiya uchun talabalarning RO registratori nomiga shaxsiy arizalari imtihon natijalari e’lon qilingandan keyingi 3 kun mobaynida qabul qilinadi. Apellyatsiya uchun arizalar RO da qayd qilinadi, unda apellyatsiya qilinadigan muammo mohiyati ko‘rsatiladi. Apellyatsiya og‘zaki shaklda kafedraning fan apelliatsiya komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

“Apellyatsiyasiz imtihon qaydnomasi” va “Apellyatsiyali imtihon qaydnomasi” komissiya raisi va a’zolari, RO vakili tomonidan imzolanadi va RO ga taqdim etiladi.

Agar talaba imtihonda qoniqarsiz baho (F) olsa, hisob amalga oshirilmaydi va qaydnomaga (F) yoziladi.

Yozgi imtihon sessiyasi o‘tkazuvchi xarakterga ega hisoblanadi va keyingi kursga o‘tish uchun sessiyani ijobiy baholarga topshirish yetarlibo‘lmaydi. Kurdan kursga o‘tkazuvchi o‘rtacha GPA (Grate Point Average) bali oliv o‘quv yurti tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. GPA ning qiymati ikkinchi kursga o‘tish uchun – kamida 2,0, uchinchi kursga – kamida 2,25-2,5, to‘rtinchi kursga – kamida 2,5-3,0 bo‘lishi tavsiya etiladi.

Talabaning butun o‘qish davri uchun GPA bali talabaning o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi sifatida RO da quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Kredit ta’lim tizimida malakaviy amaliyot

Malakaviy amaliyot talabaning ta’lim traektoriyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va u erishgan malaka darajasini baholashga imkon beradi. Barcha turdagи malakaviy amaliyotlar ishchi o‘quv rejalarida aksettirilishi va ularning hajmi kamida 10 kreditni tashkil etishi shart.

Talaba amaliyot dasturini bajarish uchun zarur bo‘lgan nazariy tayanch kurslarni minimum darajada o‘zlashtirgan taqdirda amaliyot talabaning shaxsiy o‘quv rejasiga kiritiladi.

Tanishuv amaliyotini o‘quv jarayonidan uzilmagan holda o‘tashga barcha talabalarga akademik o‘zlashtirish darajasidan qat’iy nazar ruxsat etiladi.

Ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlarini nazariy ta’lim kurslarini ijobiy yakunlagan talabalarga o‘tashga ruxsat etiladi.

Amaliyot o‘tash natijalari ball-kredit tizimida baholanadi va kursdan kursga o‘tishda talabaning GPA ko‘rsatkichini hisoblashda inobatga olinadi. Ta’lim dasturi amaliyotlarning prerekvizitlari, ya’ni talabaning amaliyot o‘tashi uchun zarur bo‘ladigan tayanch nazariy fanlar ro‘yxati bo‘lishininazarda tutadi.

Amaliyot dasturlari kafedralar tomonidan mutaxassislikning xususiyatlari va amaliyot bazalarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib ishlab chiqiladi. O‘quv amaliyotining dasturi quyidagilarni o‘zida aks ettirishi lozim:

- amaliyotning davomiyligi va yo‘nalishi;
- talabalarning shaxsiy topshiriqlari va nazorat tadbirlari mazmuni va

ularni bajarish muddatlari;

- amaliyot o'tash bazalarida talabalarning innovatsion faoliyatdaishiroki;
- amaliyot bo'yicha hisobotlarni tayyorlash tartibi va ularni himoya qilish muddatlari.

Amaliyot dasturi har bir talabaga beriladi. Amaliyotni o'tash davridatalaba quyidagi majburiyatlarga ega:

- o'quv dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi, shu jumladan amaliyot kundaligini yuritishi;
- amaliyot bazasida amal qilayotgan ichki mehnat intizomi qoidalariga rioya qilish;
- mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o'rganish va ularga qat'iy rioya qilish;
- amaliyot rahbariga bir hafta muddatda yozma hisobot va amaliyot kundaligini taqdim etish.

Amaliyot yakunida amaliyot rahbarlari talabaning o'quv amaliyotini o'tash darajasi va qo'yilgan maqsadlarga erishganligi haqida yozma taqrizlar tayyorlashadi va talabani keyingi kursga o'tkazish uchun dekanat va RO ga topshirishadi.

TALABALARNI BAHOLASHDA DASTLABKI TAVSIYALAR

Yuqorida aytib o'tganimizdek ECTS kredit-modul tizimi o'z baholash tizimi va shkalasiga ega, lekin u ushbu baholash shkalasi tavsiyaviy aham iyatga ega. Ya'ni ECTS tizimini qabul qilayotgan davlatlar qaysi baholash tizimini qabul qilish masalasini o'zları erkin xal qiladilar. Amaldagi ECTS kredit-modul tizimi qoidalari bunga e'tiroz bildirmaydi. Lekin muammo shundaki, mamlakatimizdag'i talabalarni baholash tizimining amaldagi qoidalari bor-yugi 3 ta ijobjiy baholar mavjud (3, 4, 5), va bu baholash tizimida ijobjiy baholar soni ancha cheklanganligi tufayli ular talabalarning bilim va salohiyatlaridagi farklarni yetarli darajada aks ettirmaydi. ECTS tizimida esa ijobjiy baholar soni 5 ta, Amerika baholash tizimida esa 12 ta baholash shkalasi mavjud.

Baholash amaliyotidagi bu katta farqlar baholar konvertatsiyasida noaniqliklar va xatolar bo'lishi extimolini kuchaytiradi. Shuning uchun mamlakatimizdag'i talabalarni baholash tizimini, ya'ni O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-soni bo'yrgi bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida»gi nizomni qayta ko'rib chiqishni va unda baholash shkalasi diverseifikasiyasini kengaytirishni tavsiya etamiz.

Bundan tashqari ECTS kredit-modul tizimiga o'tgan har bir OTT universitet darajasida yoki fakul'tetlar darajasida «baholar taqsimoti jadvali» ni yaratib, uni munta zam ravishda yangilab borishi va uni talabalarni diplom ilovalarida qayd etilishini ta'minlashi zarur. Bu talab YeSTS ning OTT larda baholash shaffofligini ta'minlash bo'yicha eng minimal va asosiy talablaridan biridir. Baholar taqsimoti jadvali har3 yilda kamida bir marotaba yangilab boriladi. Baholar taqsimoti jadvali

kompyuter dasturi yordamida yaratiladi va yangilab boriladi. Buning uchun talabalarning baholari bo'yicha statistik ma'lumotlarning bo'lishi o'zi kifoya. Bunday ma'lumotlar Hozirda OTTlarda mavjud.

Nixoyat, OTTlar talabalarning GPA larini ham hisoblash me-xanizmlarini yaratib ushbu ma'lumotni ularning diplom ilovalarida aks ettirilishini ham ta'minlashlari zarur bo'ladi. RADan OTTko'pkonuniy maqsadlarda foydalanishi mumkin. Lekin talab etiladigan minimal GPA miqdorini belgilashda talabalarning imkoniyatlari hisobga olinishi maqsadga muvofik. GPA tizimi talabalarni jazolash vositasiga aylanib qolmasligi kerak.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA IMTIHONLAR

ECTS kredit-modul tizimi imtihonlar masalasida aniq belgilab qo'yilgan katiy qoidalarga ega emas. Lekin o'z ta'lim boshqaruvini ECTS kredit-modul tizimi asosida yuritadigan xorijiy OTTlar imtixonlar qoidalarini tahlil qilganimizda quyidagi umumiyl tamoyillarni ko'zatishimiz mumkin.

TALABA SEMESTR YoKI O'QUV YILIDA YetARLI KREDITLARNI TO'PLAY OLMAGANLIGI

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ECTS kredit-modul tizimida talabalar har semestr va har o'quv yilida muayyan miqdordagi kreditlarni jamg'arib borishlarn kerakligi belgilangan. Shunda xaqli bir savol tug'iladi: agar talaba semestr yoki o'quv yili davomida biror-bir fandan yiqilib, belgilangan kreditlarni jamg'ara olmasa, u keyingi bosqichda o'qishini davom ettirishi mumkinmi?

Dastavval, ko'pgina rivojlangan davlatlar OTTlari amaliyotida agar talaba o'quv yili davomida biror-bir fandan birinchi marotaba yiqilsa, ushbu talaba fan bo'yicha hech qanday qo'shimcha to'lovlarsiz qayta imtihon topshirish imkoniyatiga ega. *Yana bir bor ta'kidlab o'tamiz: imtihondan yiqilgan talaba saita imtihon topshirish uchun qo'shimcha pul ov km imi talab etilmaydi.* Bundan tashqari dastlabki imtihon va qayta imtihon oraligi juda qisqa bo'lmasligi zarur. Ya'ni talaba imtihondan yiqilgandan so'ng keyingi imtihonga tayyorgarlik ko'rish uchun yetarlicha vaqt imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Agar talaba qayta imtixondan ham yiqilsa, undan o'sha fanni qayta olish (o'qish) talab qilinishi mumkin. Ya'ni talaba biror bir fandan birinchi marotaba yiqilgan taqdirda undan darhol ushbu fanni qayta olish talab etilmaydi. Bundan tashqari agar talaba yiqilgan fan tanlov fani bo'lsa ham, talabidan ushbu fanni qayta olish talab etilmaydi. Bunda talaba o'sha fan o'rniga keyingi semestrda shunchaki boshqa qo'shimcha tanlov fanini olishi mumkin. Lekin fan majburiy fan bo'lsa talaba uni qayta olishi zarur. OTT fanni qayta olayotgan talabidan fan uchun qushimcha to'lov amalga oshirishni talab qilishi mumkin. Bunda talaba to'lovnini o'quv yili yoki semestr uchun emas balki aynan qayta olayotgan fani yoki fanlari uchungina to'lovnini amalga oshiradi.

Keyingi masala - talabaning ayrim fanlardan yiqilganligi tufayli semestr yoki yil uchun belgilangan kreditlar miqdorini to'play olmaslik masalasi haqida tuxtalib o'tsak. Bizga yuqoridan ma'lumki ECTS kredit-modul tizimida, talaba bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida esa 60 kredit to'plashi zarur. Talaba semestr davomida yoki o'quv yili davomida ayrim fanlardan imtihonlardan yiqilsa, tabiiyki u yetarli kreditni to'play olmaydi. ECTS kredit-modul tizimida bu masala qanday

xal etiladi? Talaba yetarli semestr yoki o‘quv yili bo‘yicha yetarli kreditlarni jamg‘ara olmasa bu qanday okibatlarni keltirib chiqaradi?

Talaba fanlardan yetarlicha natija ko‘rsatgan-ko‘rsatmaganligini odatda uning o‘quv yili davomida jamg‘argan krediglari soniga qarab yoki GPA ko‘rsatkichiga qarab aniqlash mumkin. Bu odatda talabaning kursdan-kursga o‘tishiga xalal bermaydi. Lekin talaba OTT tomonidan belgilangan muayyan miqdordagi minimum talablarni bajarishi kerak bo‘ladi. Ko‘pgina Yevropa universitetlarida talabaning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish uchun belgilangan 60 kreditdan kamida 45-48 kredit jamg‘argan bo‘lishi zarur. Talab etiladigan eng minimal kreditlar miqdori 45-48 tani tashkil qiladi. Bunda talaba qolgan kreditlarni yoz davomida yoki keyingi semestr davomida yiqilgan fanlaridan dars olib kreditlarni 60 yetkazib olishi mumkin. Lekin talaba to‘plagan kreditlar miqdori 45-48 tadan tushib ketadigan bo‘lsa, talaba keyingi semestrda boshqa fanlar bilan birga yiqilgan fanlarini olib kreditlar miqdorini yetkazib olish qiyin bo‘lib qoladi. Bundan talaba avvalgi yil kreditlarini to‘lik to‘plab olmaguncha keyingi bosqichga o‘tishi to‘xtatib turilishi mumkin.

Talabaning bosqichdan bosqichga o‘tishi masalasini uning o‘quv yili davomida jamg‘argan GPA ga qarab ham belgilash mumkin. Masalan AKSh kredit-modul tizimida talaba bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishi uchun talab etiladigan eng minimum GPA 4.3 lik tizimda 2.0 dir. Bunda talaba bir yil davomida 2-3 fan imtixonidan yiqilgan taqdirda ham keyingi bosqichda o‘qib turaverishini va shu jarayonda yiqilgan fanlari kreditlarini kam yetkazib olishini anglatadi. ECTS kredit-modul tizimida bunday holatda talab etiladigan minimum GPA miqdori o‘sha OTTning GPA hisoblash mexanizmlariga bog‘liq. Agar baho 2-5 lik baholash tizimida talabaning bir bosqichdan keyingi bosqichga o‘tish uchun eng minimal GPA 2.4 atrofida bo‘lishi mumkin. GPA tushunchasi, uning vazifalari va hisoblash mexanizmi qo‘llanmaning 6-bo‘limida keltirilgan.

TALABA BIR FANNI BIR MAROTABADAN ORTIQ OLİSHI

Talaba fan bo‘yicha imtihonlardan 2 marotaba yiqilgan taqdirda yoki qo‘lga kiritgan o‘tish bahosini yanada ko‘tarish maqsadida bir fanni bir marotabidan ortiq olishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bunda u ushbu fan uchun alohida to‘lovni amalga oshirishi zarur bo‘ladi. OTT fanlar bo‘yicha ham to‘lov summasini ishlab chiqadi. Talaba fanni qayta olgan taqdirda, ushbu fanni birinchi marotaba olayotgan boshqa talabalar bilan bir xil tarzda uning barcha talablarini qaytadan bajarishi zarur. Ya’ni unga fan mashg‘ulotlari, imtihonlari bo‘yicha boshqa talabalardan farq qiluvchi hech qanday afzalliklaryoki imtiyozlar berilmaydi. Talaba fanni qayta olgan taqdirda, ushbu talabaning diplom ilovasida ushbu fan bo‘yicha birinchi va keyin olgan baholari ham qayd etiladi. Lekin talabaning GPA ni hisoblashda uning faqat oxirgi olgan bahosi hisobga olinadi. Bu qoida agar talabaning keyin olgan baxosi oldin olgan baxosidan past bo‘lgan taqdirda ham amal qiladi. Talaba bir fanni ikki marotabidan ortiq olishi mumkin, lekin bu uchun odatda fakul’tet dekani ruxsati talab etiladi.

IMTIXONLAR OLDI TAYYORGARLIGI QOIDALARI

Imtixonlar payti talabalar uchun o‘quv yilining eng xaya- jonli, zurikishli va uykusiz kechadigan davrlaridan biridir. Ular imtixonlar davrga yaxshi o‘qish tayyorgarliklari bilan kirib kelishni hohlaydi. Imtixonlar davri yakinlashgan sari talabalar o‘tgan mavzularni takrorlab olish, o‘rgangan mavzularini yanada yaxshiroktushunib olish, o‘qishlarida biroz ortda qolgan bo‘lsalar uni yetkazib olish va shu kabi imtixonga tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar. Shuning uchun imtixonlar davri boshlanishidan oldingi 10 kun yoki 1 hafta davomida talabalar bilan hech qanday nazorat ishlari (masalan joriy nazorat), testlar, yozma ishlari o‘tkazish tavsiya etilmaydi.

IMTIXON O‘TKAZISH TARTIBLARI

Har bir o‘quv yili boshida o‘quv yili kalendari OTT o‘quv platformasida e’lon qilinishi shart. Ushbu kalendarda, o‘quv haftalari, ta’tillar va imtixonlar xdfiasi va muddati oldindan aniq ko’reatib o‘tiladi. Odatda OTTlarda imtixonlar semestr sush ida amalga oshiriladi. Har bir mavsum imtixonlari boshlanishidan kamida ikki hafta oldin imtixonlar jadvali OTT o‘quv platformasida e’lon qilinishi va har bir talabaning elektron pochtasiga bu haqida xabar yuborilishi kerak. Imtixonlar jadvali har bir fan o‘qituvchisi bilan kelishilgan holda OTT o‘quv bo‘limi yoki registrar ofisi tomonidan to‘ziladi.

Imtixonlar o‘quv haftasi davrida o‘tkazilmaydi, Ushbu davr mobaynida ma’ro‘zalar yoki boshqa o‘quv mashg‘ulotlari rejalshtirilishi mumkin emas. Imtixon natijalari OTT o‘quv platformasida e’lon qilinadi va talabalarga imtixon natijalari bilan bog‘liq savollar bilan murojaat qilishlari uchun vaqt beriladi. Har bir imtixon uchun shu OTTda shu fanga mas’ul bo‘lgan o‘qituvchi ma’sul hisoblanadi va imtixon uchun to‘zilgan savollarningto‘g‘riligi va sifatiga javobgar hisoblanadi. Imtixon olish tartibi, savollar shakli, imtixon uchun ajratilgan vaqt, baholash mezonlari mas’ul o‘qituvchi tomonidan OTT o‘quv qoidalari doirasida belgilanadi. Imtixonlarni o‘tkazishda o‘qituvchilardan tashqari nazoratchi (invigilator) lar ham jalb qilinishi mumkin. Nazoratchilar kafedra xodimlari va OTTda taxsil olayotgan doktorantlardan olinishi mumkin. Imtixonlardan so‘ng talabalarga kamida 2 hafta yangi semestrga tayyorgarlar ko‘rish uchun ta’til beriladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
- 4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
- 5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujatlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdag‘ “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdag‘ “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish

haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

11.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

12.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

13.Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Symanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

14.O.S. Frolova. Formirovanie innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povysheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

15.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

16.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘sishlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

17.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlari:

18.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

19.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

20.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

21.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.

22.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY MUSIQA TA'LIMI METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI.

Oliy musiqa ta'limi metodikasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari fanining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari, mustaqillik davri rivojlanishi. Oliy musiqa ta'limi metodikasi o'qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari va innovatsiyalari rivojlantirish yo'llari.

musiqa ijrochiligidagi tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi xususida xorijiy adabiyotlar (tahlili, ta'lim jarayoniga tadbiq etish masalalari). Mumtoz musiqani o'rgatish uslubining zamonaviy lashtirilishi. Ta'lim tizimida cholg'u ijrochiligin o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar. Musiqiy asarlarni o'zlashtirishda ijrochilikning an'anaviy va zamonaviy uslublar. Repertuar tanlash va cholg'u ijrochilarini tayyorlashda individual yondashuv masalalari. Mashhur cholg'uchilarining ijodi. Ular yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari.

Professional ijrochilik o'zining mukammalligi, har bir kuya oqilona yondashishi bilan ajralib turadi. Mukammalligi shundaki: ijro paytida o'zini tutishi, har bir shtrix, har bir zarb, har bir parda o'z o'rnida bo'lishi; har bir kuya oqilona yondashishini shunday izohlash mumkin: cholg'uchi ma'lum bir kuyni ijro etishdan oldin yaxshilab o'rganib chiqadi, kuyning murakkab jihatlari, pardalari, tarixiy kelib chiqishi, ruhiyatidan kelib chiqib, ijodiy yondashadi.

Havaskor ijrochilik esa aksincha, sahnada o'zini tutishi, kuyning ba'zi jihatlari, unsurlarini sezmay tashlab ketishi, shtrix va zarblarini poyma-poy ketishi, chalayotgan kuya xos bo'lмаган pardalarini ijro etishi bilan farqlanadi.

Mashhur cholg'uchilarining ijodi.

Mashhur cholg'uchilarining ijodi bilan talabalarni tanishtirib borish ham ustoz sozanda zimmasidagi vazifalardan biridir. Har bir kuyni ijro etishdan oldin ushbu kuyni mashhur ijrochilar, ijrochilarining qaysi maktab vakillari ekanligi haqida gapirish ustoz uchun ham qarz, ham farzdir. Bu ijrolarni magnit yozuvlarini eshitirib, dars o'tilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Mashhur cholg'uchilar yaratgan uslublarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifa yana ustozlar zimmasiga yuklatiladi. Har bir berilgan kuyni ijrochi ustoz kayfiyati chog' paytida uz uslubida ijro etib, magnit tasmalariga yozmog'i kerak. Ushbu berilgan kuyni boshqa ijrochilar, boshqa ijrochilik maktabi vakillarini ham magnit yozuvlarini topib talaba sozandaga navbatma-navbat eshittirib, ustoz ijrochilik maktablarini farqini, yutuq va kamchiliklarini aytib talabaga tushuntirsa ustoz-shogird tizimining zamonaviy ko'rinishi bo'ladi.

Ishdan maqsad – Ta'lim tizimida musiqiy avangardizmni o'rgatish borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlari berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqaga mas’uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.

Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtiroy etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.
- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va regamenti.

1. Individual o‘qish-2 minut.
2. Muhokama qilish -3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Xorazm musiqa madaniyati
2. Ilk davlat tizimi davriga oid musiqiy ijod
3. Qoraxoniylar davrida musiqiy-madaniy hayot (XI-XIII asrlar)

4. Musiqiy madaniyatning rivojlanish jarayonlari

Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musiqa ijodiyoti

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilibotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
- 4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
- 5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjalalar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2023.
- 2.O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini

joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

11.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

12.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

13.Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Silymanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

14.O.S. Frolova. Formirovanie innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povysheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

15.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

16.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘sishlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

17.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlari:

18.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

19.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi.

20.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

21.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.

22.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

2-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASI O‘QITISHNI LOYIHALASH.

Oliy musiqa ta’limi metodikasi fanining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari, mustaqillik davri rivojlanishi. Oliy musiqa ta’limi metodikasi o‘qitishning muammolari va zamonaviy yutuqlari va innovatsiyalari rivojlantirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: Etnomusiqashunoslik, marosi, qadriyat, an’ana, urf-odat, musiqa o‘qituvchisi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi o‘zaro urushlar shaharlarning bo‘shab, vayronaga aylanishi O‘rta Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi. Bu protsess o‘zlarini o‘zbeklar deb atagan ko‘chmanchilar boshlig‘i Shayboniyxon hokimiyatni qo‘lga olgan XVI asrniig boshidayoq faollashgan edi. Ana shu vaqtidan boshlab “o‘zbeklar” degan xalq nomi qaror topadi. XVII va XVIII asrlarda feodal tarqoqlik kuchayadi. Katta feodal davlati alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qo‘qon xonliklariga bo‘linib ketdi. Bunday bo‘linish o‘zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O‘zbek xonlari saroyidagi musiqiy hayot asosan temuriylarning Hirot va Samarqand saroylaridagi an’analarini davom ettirardi.

Ishdan maqsad – Ta’lim tizimida mashhur cholg‘uchilarning ijodi; mashhur cholg‘uchilar yaratgan uslublarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalarini tahlil qilish. Tinglangan audio yoki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi talabalarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘srimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagি talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqan mas’uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.

Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

1. Individual o‘qish-2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Mashhur rubob cholg‘uchilaridan kimlarni bilasiz?		
G‘ijjakda an‘anaviy ijro bilan akademik ijroning nima farqi bor?		
An‘anaviy cholg‘u ijrochiligidagi qaysi zarbli cholg‘ular ishlataladi?		

Ikkinchı guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Mashhur g‘ijjak cholg‘uchilaridan kimlarni bilasiz?		
Rubobda an'anaviy ijro bilan akademik ijroning nima farqi bor?		
Akademik cholg‘u ijrochiligidagi qaysi zarbli cholg‘ular ishlataladi?		

2-ilova

Guruheni baholash jadvali.

Guruhanlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruhan a'zosining faol-ligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyoga jahon madaniyatning ta'sirini tushuntirib bering?
2. O‘yg‘onish davrida yangicha tafakkur qanday yaratildi?
3. Madaniy aloqalar rivojidagi madaniyat ravnaqi qanday?
4. Ilohiy va ilmiy falsafiy madaniyatning rivoji qanday yo‘nalishda aks etgan?
5. O‘yg‘onish davrida Islom dinining ahamiyatini qanday tushunasiz?
6. Tasavvuf falsafasini tushuntirib bering?
7. Dunyoviy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
8. Markaziy Osiyo ilmiy merosi xaqida nima deya olasiz?
9. Axmad al-Farg‘oniy xaqida nima bilasiz?
10. Abu Nasr Farobiya xaqida so‘zlab bering.
11. Abu ali ibn Sino xaqida nima bilasiz?
12. Abu Rayxon Beruniy xaqida nima bilasiz.?

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25

yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

11.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

12.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

13.Pecherkina, A. A. Razvitie professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Silymanyuk, Ye. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.

14.O.S. Frolova. Formirovanie innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povysheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.

15.Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

16.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘sishlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2022 y. 204 b.

17.Panjiev Q.B. O‘zbek xalq musiqa ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022. 274 b.

IV. Internet saytlari:

18.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

19.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi.

20.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

21.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.

22.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3-MAVZU: OLIY MUSIQA TA’LIMI METODIKASINING O‘QITISH TEXNOLOGIYaLARI

